

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**



**SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI
Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti**

«TASDIQLAYMAN»

**Iqtisodiyot va boshqaruv
fakulteti dekani, i.f.n., dotsent**

_____ F.B.Ahrorov

«_____» _____ 2014 yil

«Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrası

5610100-«Fermer xo'jaligini boshqarish va yuritish» yo'nalishi bo'yicha

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: “Uzumchilikda tannarx tahlili va uni pasaytirish imkoniyatlari”
(Qo'shrobd tuman fermer xo'jaliklari misolida)**

**Bajardi: 5610100-«Fermer xo'jaligini
boshqarish va yuritish» yo'nalishi
4-bosqich talabasi**

Avalboyev Akmal

Ilmiy rahbar: i.f.n.

I.Qurbonov

**Bitiruv malakaviy ish
muhokama qilindi va himoyaga
ruxsat berildi**

Kafedra mudiri, i.f.d.

_____ A.Alikulov

«_____» _____ 2014 yil

SAMARQAND – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1. MAVZUNI NAZARIY ASOSLASH VA ADABIYOTLAR SHARHI.....	6
2. TUMAN FERMER XO'JALIKLARINING RESURLAR SALOHİYATI VA ULARDAN FOYDALANISH.....	15
2.1. Yer - suv resurslari va ulardan foydalanish.....	15
2.2. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish.....	21
2.3. Moddiy resurslar va ulardan foydalanish.....	25
3. FERMER XO'JALIKLARIDA UZUMCHILIKDA TANNARX TAHLILI.....	30
3.1. Tannarx tushunchasi, ko'rsatkichlari va uni hisoblash usullari.....	30
3.2. Uzumchilikda mahsulotlar tannarxining hozirgi holati tahlili	35
3.3. Uzum tannarxining omilli tahlili.....	39
4. UZUMCHILIKDA TANNARXNI PASAYTIRISH IMKONIYATLARI..	42
4.1. Uzumchilikda tannarxnin pasaytirish imkoniyatlari va ulardan foydalanish..	42
4.2. Uzumchilikda hosildorlikni oshirish imkoniyatlari.....	49
4.3. Uzum yetishtirish va uni saqlashning iqtisoliy samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....	54
5. UZUMCHILIKDA HAYOT FAOLIYATI VA XAFVSIZLIGINI TA'MINLASH.....	59
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	63
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	65

KIRISH

Respublikamiz iqtisodiyotida xalqning farovonligiga va barcha resurslar salohiyatidan samarali foydalanishga ta'sir etuvchi tarmoqlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari salmog'i kun sayin ortib ormoqda.

2013 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o'sdi, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi 6,8 foizga, chakana savdo aylamasi 14,8 foizga oshdi. Bu iqtisodiy ko'rsatkichlar Respublikamizda 2013 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o'sdi, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi 6,8 foizga, dehqonchilik 6,4 foizga, chakana savdo aylamasi 14,8 foizga oshdi. Bu iqtisodiy ko'rsatkichlar Respublikamizda olib borilayotgan siyosatning aniq maqsadga qaratilgan moliyaviy siyosat bilan birgalikda, yalpi milliy mahsulotning bir qismini qayta taqsimlaydi va shu tarzda iqtisodiyot maqsadga qaratilgan moliyaviy siyosat bilan birgalikda, yalpi milliy mahsulotning bir qismini qayta taqsimlaydi va shu tarzda iqtisodiyot

Bu esa iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash bilan birga aholi o'rtasida ishsizlik muammosining bartaraf etishda muhim omil bo'ladi.

Kichik biznesning iqtisodiyotdagi ahamiyatiga to'xtash mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jamiyatimizning bugungi va kelajak taraqqiyotimiz farovon hayotimizning mustahkam tayanchi bo'lishi shart deb takidlagan edi.

O'zbekiston mustaqilligini iqtisodiy jihatdan mustahkamlash ko'p jihatdan qishloq xo'jaligining aynan fermer xo'jaliklarining samarali rivojlanishi bilan bog'liqdir.

Qator iqtisodchi olimlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini quyidagi turlarga ajratadilar:

- texnologik ishlab chiqarish;
- iqtisodiy ishlab chiqarish;
- ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik- iqtisodiy.

Texnologik ishlab chiqarish samaradorligi, ishlab chiqarish jarayonida yerga oid, moddiy va mehnat resurslaridan foydalanish darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar yordamida, ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish darajasini aniqlaydi.

Asosiy qo'rsatkichlar - yer fondidan foydalanish darajasi, moddiy va mehnat xarajatlari va boshqalar.

Ishlab chiqarish - iqtisodiy samaradorlik - texnologik ishlab chiqarish samaradorligi va iqtisodiy mexanizmlarining birgalikdagi tasiri natijalari. U qiymat qo'rsatkichlari - tannarx, yalpi daromad va sof foyda va boshqalar bilan o'lchanadi.

Respublikamizda tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshishi bozor munosabatlarining xuquqiy asoslarini yaratilishi iqtisodiyotni erkinlashtirish siyosati, byudjet va soliq sohalarini erkinlashtirish jarayoni iqtisodiyotni barqaror rivojlanishiga ijobiy tasir ko'rsatib, iqtisodiyot barqaror rivojlanmoqda 2011-yil yakunlarida barcha makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha prognoz hajmi va ko'rsatkichlar bajarildi.

- YaIM ning o'sishi:
- Inflyasiya darajasi.
- Sanoat mahsulotlari.
- Istemol tovarlar ishlab chiqarish.
- Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish.

Xo'jalik iqtisodiyotini mustahkamlashda boshqaruv jarayoni samaradorligini oshirishga va uni ishonchli axborotlar bilan ta'minlash muhim hisoblanadi.

Hozirgi kunda uzumchilik fermer xo'jaliklarida muntazam ravishda tannarx pasaytirish, foyda va uni oshirish imkoniyatlarini hisobga olib ishlari olib muhim hisoblanadi.

Femer xo'jaliklarda tannarx pasaytirish, foyda va uni oshirish imkoniyatlarini talablar asosida tashkil etish, moliyaviy natijalarni to'g'ri aniqlash, dividendlarni iqtisodiy asoslangan holda taqsimlash bozor iqtisodiyotining muhim talablaridan biridir.

Fermer xo'jaligida tannarx pasaytirish, imkoniyatlarini ilmiy asoslarini va

amaliy jihatlarini o'rganganishda Samarqand viloyati Qo'shrobot tumani uzumchilik fermer xo'jaliklarining 2011-2012-2013 yillardagi hisobot ma'lumotlaridan keng foydalandik.

Mazkur bitiruv malakaviy ishining maqsadi – Qo'shrobot tumani fermer xo'jaliklarida uzumlikchilikda tannarxni tahlil etish va uni pasaytirish bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti Qo'shrobot tumani uzumchilik fermer xo'jaliklari bo'lib, maqsadga erishish uchun uni oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

1. Fermer xo'jaliklarning tashkiliy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'rganish va tahlil qilish;
2. Uzumchilik mahsulotlari tannarxini pasaytirishni tashkil etishning hozirgi ahvolini o'rganish va uni takomillashtirish bo'yicha takliflar berish;
3. Mahsulot tannarxini hozirgi ahvoli va uni hisoblash usullarini o'rganish;
4. Mahsulot tannarxini dinamik va omilli tahlil qilish va shu asosda tannarxni pasaytirish bo'yicha takliflar berish;

Ushbu vazifalarni hal etishda ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda qo'llaniladigan kuzatish, guruxlash, tahlil qilish va boshqa usullardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida mahsulot tannarxini aniqlash usullari ko'rib chiqilib, aniq materiallar asosida mahsulot tannarxini pasaytirish bo'yicha takliflar berildi.

1. MAVZUNI NAZARIY ASOSLASH VA ADABIYOTLAR SHARXI

Mustaqillikka erishilgandan keyin Respublikada mustabid tuzumdan meros bo'lib qolgan iqtisodiyot boshqaruvining mamuriy buyruqbozlik uslubidan voz kechilib, xalqimizning milliy, tarixiy merosi, turmush tarzi, urf-odatlarini, ananalari hamda mentalitetiga tayangan holda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish modeli yani «O'zbek modeli» yaratildi va hayotga tadbiq etilmoqda.

Respublika agrosanoat majmuida ro'y berayotgan o'ziga xos holat, bu sohadagi mavjud vaziyatni chuqurroq tahlil qilishni, qo'yilgan vazifalarni imkon boricha ertaroq va kamroq yo'qotishlar bilan bajarish chora- tadbirlarini belgilashni taqozo etadi.

Bu chora-tadbirlarni ishlab chiqarishda va asoslab berishda jahondagi bozor iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlangan mamlakatlarda to'plangan boy tajribalarni har tomonlama o'rganish, umumlashtirish va ulardan samarali foydalanish respublika fermer xo'jaliklarini oqilona tashkil etish, ularning iqtisodiy samaradorligini barqaror oshirish bo'yicha aniq takliflar, tavsiyalar ishlab chiqarish va uni xo'jalik yuritish faoliyatlariga tadbiq etish sohaning iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'sishiga ijobiy tasir ko'rsatishi muqarrardir.

Iqtisodiy samaradorlik va uni o'rganish uslublari hamda samaradorlikni oshirish borasidagi muammolar S.Bryu, E.Dolan, D.Rikardo, A.Smit va boshqa bir qator yirik xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan.

Xalq xo'jaligi tarmoqlarida iqtisodiy samaradorlikni o'rganish va uni oshirish imkoniyatlari, uni boshqarishni takomillashtirish va tahlil qilishning turli uslubiyotlarini ochib berish masalalari mamlakatimiz olimlaridan A.Abdug'aniyev, Yo.Abdullayev, R.G.Ibragimov, A.N.Jabriyev, M.Muhamedov, M.Q.Pardayev, N.To'xliyev, M.Sharifxo'jayev, A.O'lmasov, S.S.G'ulomov, A.Q.Ismoilov, F.Jo'rayev, O.Murtazayev, T.Qudratov va boshqalarning ilmiy ishlarida keltirib o'tilgan-qishloq xo'jaligi aynan fermer xo'jaliklarida foyda va uni oshirish imkoniyatlari masalalari bo'yicha mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A.A.Abduganiyev, A.M.Qodirov, A.Q.Ismoilov, A.M.Jo'rayev, F.J.Jo'rayev,

O.Murtazayev, I.I.Rasxin, L.I.Rasxin, K.A.Choriyev, A.A.Shokirov, A.S.Samutali, F.K.Qayumov, M.X.Xusanov, R.X.Xusanov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari tarmoq samaradorligi uchun muhim ahamiyat kasb etgan.

Bozor munosabatlari sharoitida fermer xo'jaliklarida foyda va uni oshirish imkoniyatlari masalalariga doir R.V.Abdullayev, N.S.Xushmatov, J. Yusupovlarning e'lon qilgan ishlari diqqatga sazovordir.

Ushbu ishlarda fermer xo'jaliklarida foyda va uni oshirish imkoniyatlari kabi qator masalalar o'rganilib tegishli takliflar berilgan.

Chop etilgan ayrim adabiyotlarga sharx berib o'tamiz.

1. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish - ustuvor maqsadimizdir. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi maruzasi. // Xalq so'zi. 28.01.2010.

Maruzada qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili deb elon qilinishi va qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich chuqurlashtirish, fermer xo'jaliqlarini qo'llab-quvvatlash, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, imtiyozlar berish, qishloqda shakllanadigan yangi mulkiy munosabatlarni, o'rta tabaqa-mulkdorlarning, tadbirkorlarning va ishbilarmonlarning manfaatlarini ishonchli ximoya qilishga etibor berilishi natijasida murakkab iqlim sharoitiga qaramasdan 3,4 mln tonna g'alla xom ashyosi yetishtirilganiga alohida etibor qaratiladi.

2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T. O'zbekiston, 2009.

Mazkur asarda bugungi davrda vujudga kelgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, uning kelib chiqarish sabablari, jahon mamlakatlariga uning tasiri va ularning unga qarshi chora-tadbirlari, ko'rash yo'llari, jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining O'zbekistonga tasiri, uning salbiy oqibatlarini kamaytirish chora-tadbirlari, bank tizimini qo'llab quvvatlash kabi masalalar haqida bayon etilgan.

3. Karimov I.A. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini

izchil davom ettirish yili bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezident Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishiga bag'ishlangan Mahkamasining majlisidagi maruzasi.// Zarafshon. 18.01.2014.

Mazkur maruzada Prezidentimiz tomonidan qishloq xo'jaligida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarga to'xtalib o'tilib, jumladan shunday fikrlar bildirilgan:

Avvalo, murakkab ob-havo va iqlim sharoiti tufayli vujudga kelgan muammo va qiyinchiliklarga qaramasdan, qishloq mehnatkashlarining fidokorona mehnati hisobidan 2013 yil eng muhim qishloq xo'jalik mahsulotlari davlat haridi bo'yicha shartnoma majburiyatlari nafaqat bajarilgani, balki ortig'i bilan bajarilganini ta'kidlash o'rinlidir.

4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Buxgalteriya hisobi to'g'risida 30.08.1996.

Ushbu Qonun mamlakatimizda buxgalteriya hisobini tashkil etish hamda hisobot tuzish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi, 14- modda xususiy kapital.

Ustav kapitali, qo'shilgan va zahira kapitalidan, hamda taqsimlanmagan foydadan tarkib topadi.

Taqsimlanmagan foyda foydaning jamg'arilayotganini ifodalaydi va mulkdorlarning Qaroriga binoan ustav kapitaliga qo'shilish mumkin deb yozilgan.

Albatta Qonunda bunday belgilanishi uni bajarish lozimligini bildiradi. Faqat bizning fikrimizcha taqsimlanmagan foyda ustav kapitaliga emas, rezerf (zaxira) kapitaliga qo'shilishi mumkin deb ko'rsatilganda maqsadga muvofiq, bo'lar edi.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom.

05.02.1999. -№54.

Ushbu Nizomning qabul qilinishi fermer xo'jaliklari daromadlari va xarajatlarini aniq belgilangan guruhlarga ajratib olish hamda moliyaviy natijani shakllantirish tartibini belgilab beradi.

Nizomda moliyaviy natijalarni besh ko'rsatkichi belgilangan bo'lib, ularning har birini tarifi va aniqlash bo'yicha formulalari berilgan. Jumladan, "Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda, bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o'rtasidagi tafavut va plus asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar, sifatida aniqlanadi deb belgilanadi.

Nizomning davr xarajatlari bo'limida asosiy faoliyatning zararlari davr xarajatlariga kiritilishi ko'rsatib o'tilgan. Shuning uchun "Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda, bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o'rtasidagi tafavut va plus asosiy faoliyatning boshqa foydasi deb yozilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

6. B.X.M.A № 21-Xo'jalik yurutuvchi subyektlar moliyaviy xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma. 9.09.2002.

Buxgalteriya hisobining ushbu milliy andozasi Moliya Vazirligi tomonidan 2002 yil 9 sentyabrda tasdiqlanib, Adliya Vazirligi tomonidan 2002 yil 23 oktyabrda ro'yxatga olingan.

Ushbu Nizomga asosan 5 qism va uning tarkibida bo'lgan 9 bo'limdan iborat schyotlar rejasi tasdiqlandi.

Schyotlar rejasining 1-8 bo'limlari balans sistemasiga 9-bo'lim moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot sistemasiga mos ravishda joylashtirilgan. Oldingi ikki xonalini o'rniga schyotlar to'rt xonali sanalishga ega bo'lib, buxgalteriya schyotlari turkumlanishi yangicha bo'ldi. Doimiy schyotlar tranzit schyotlar va balansdan tashqari schyotlar bo'lib, oldingi aktiv - passiv (aralash) schyot tushunchasi yo'q bo'ladi.

Ushbu andozani qabul qilinishi buxgalteriya schyotlari asosida moliyaviy

natijani aniqlashni yengillashtiradi hamda korxonalar moliyaviy natijalarini uzluksiz nazorat qilish imkonini beradi.

7. Doliyev T. Sarhisob pallasi. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 2008. - №10. -1-b.

Moliyaviy natijalar va foyda taqsimoti hisoboti hamda tahlili muhim bo'lib ular hisobni to'g'ri olib borish korxonalar faoliyatida muhim ahamiyatga ega.

Moliyaviy natijalar va foyda taqsimoti bir tamondan alohida bo'lib, ikkinchi tomondan bir-biri bilan bog'liq.

Chunki moliyaviy natija aniqlangandan so'ng, u foyda bo'lsa, shu korxonalar Nizomiga asosan taqsimlanadi.

Korxonalarda olingan foyda tahlil qilinib uni ko'paytirish bo'yicha imkoniyatlar aniqlanadi. Shuning uchun dastlab moliyaviy natija hisoblanib, so'ngra foyda taqsimlanadi.

Moliyaviy natijalarni aniqlash va foyda taqsimotini amalga oshirish, hamda ularning tahlil bo'yicha ilmiy adabiyotlar va maqolalar mavjud bo'lib, ularda keltirilgan tavsiya va takliflar bilan tanishib chiqamiz.

8. Jo'rayev Sh., Kazaxboyev Sh., Davlatov F. Daromad va xarajatlar tahlili. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 2008. -№12. -26-b.

Qishloq ho'jalik korxonalarida daromadlar va xarajtlarni to'g'ri aniqlash, xisobotlardan o'z vaqtida aks ettirish va haqqoniy shakllanganini tahlil etib berish muhim ahamiyatga ega.

Maqolada qishloq ho'jalik korxonalarida daromadlar asosiy, operasion va moliyaviy daromatlarga bo'linishi, asosiy faoliyatdan olinadigan daromadlar asosiy mahsulotlar (g'alla, g'alla va x.k.)ni sotishdan olingan tushum ekanligi yoritilgan. Shu bilan birga xarajatlarni ham turlari berilib, ularni bir-biriga solishtirish natijasida, ya'ni xarajat va daromadlar taqqoslanib moliyaviy natija aniqlanishi yozilgan. Moliyaviy natijalarni to'g'ri aniqlanishi, omillar tahlili amalga oshirilishi, ho'jaliklarda foyda salmog'ini oshirishga imkon beradi.

9. Ismoilov A., Murtazayev O. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. -T.: Moliya

2005. - 478 b.

Ushbu darslikda qishloq xo'jalik korxonalarining iqtisodiyoti bilan bog'liq bo'lgan resurslar: yer, mehnat va moddiy resurslardan foydalanish holati, ulardan foydalanishning iqtisodiy ko'rsatkichlarini hisob tartibi hamda shu iqtisodiy ko'rsatkichlarning ta'riflari berilgan. Shu bilan birga qishloq xo'jaligininghar bir sohasi: g'allachilik, g'allachilik, sabzavotchilik, qoramolchilik, parrandachilik va boshqa sohalarning iqtisodiyoi batafsil yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishni bajarishda misol tariqasida g'allachilik iqtisodiyotini rivojlantirishda mahsulot tannarxi uni shakllantiruvchi xarajatlar, umuman olganda g'allachilik iqtisodiyotini yanada mustahkamlashda omil bo'ladigan iqtisodiy kategoriyalardan foydalaniladi.

10. Raxmonov H. Otajonov Sh. Kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni rivojlantirish. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 2008. № 2- son. 27 – 28b.

Kichik biznes va hususiy tadbirkorlik korxonalar jaxon tajribasiga qaraganda, barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy omili, iqtisodiy kon'yukturaning o'zgarishlariga tez moslasha oladigan, yangi texnik va texnologiyalarni doimiy ravishda talab qiladigan, mehnat unumdorligi yuqori bo'lgan xo'jalik subyektlaridir.

Qishloq xo'jaligida asosiy xo'jalik yuritish shakli bo'lgan fermerlar, asosan kichik biznes subyektlari bo'lib, ular mamlakatimizda yetishtirilayotgan donning 80- 82 % ni ishlab chiqarmoqda. Mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini 42 – 44 %ni kichik biznes subyektlari hissasiga to'g'ri kelsa, rivojlangan mamlakatlarda 50- 67% ga to'g'ri yelmoqda.

Maqolada kichik biznes subyektlarni, shu jumladan fermer xo'jaliklarini izchil rivojlantirish, jaxon tajribalarini umumlashtirilgan holda ishlab chiqarishni rivojlantirish, tannarxi arzon va sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha mualliflarning fikrlari yoritilgan.

11. Siddiqov R. Maxmudov H. Kelgusi xosilga tayyorgarlik. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 2008. -№8. 3-4 b.

Mamlakatimizda g'allachilikni rivojlanishi bo'yicha salmoqli yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. Jumladan, 2008 yilda 6million 330 ming tonna don, shu jumladan 6million 145ming tonna bug'doy yetishtirildi.

Respublika bo'yicha o'rtacha hosildorlik 48 s ni tashkil etdi. Mamlakatimiz tarixida ilk bor g'allachilikdan 1trillion 37 milliard so'mdan ortiq daromad olindi. Maqolada yuqoridagi ma'lumotlar bilan birga, g'allachilikda yuqori xosil olish uchun agro texnik tadbirlarini o'z vaqtida o'tkazish, serxosil va tez pishar navlarni tanlash hamda ekish mavsumini yerlarning holatiga qarab muddatida tugallash ta'kidlangan.

Shuningdek serxosil, kasallikka chidamli g'alla navlari berilib, ular to'g'risida tavsiyalar berilgan. Ushbu tavsiyalarga g'allachilikda e'tibor berish, ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish imkonini berib, yuqori hosil olish va mahsulot tannarxini pasaytirishga, natijada g'allachilikdan olinadigan foydani ko'payishiga olib keladi.

12. Olimjonov O. Oziq- ovqat xavfsizligini ta'manlash. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 2009. - №2-son. 14 – 15b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 20 – oktyabrdagi “oziq – ovqatlari ekinlari ekiladigan maydonlarni optimallashtirish va ularni yetishtirishni ko'paytirish chora-tadbirlarini to'g'risidagi farmoniga asosan, 2009 yilda g'alla yetishtiradigan maydonlar qisqartirilib, boshoqli don ekiladigan maydonlar 50 ming gektarga kengaytirish ko'zda tutilgan. Xukumatimiz tamonidan agror sohani baqaror rivojlanishi uchun katta ko'mak berib kelmoqda.

Qishloq ho'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni qo'llab – quvvatlashni o'z ichiga olgan katta dastur bajarilmoqda. Maqolada, jaxonda iqtisodiy va oziq – ovqat inqirozlari tabora chuqurlashayotgan bir davrda mamlakatimizda oziq – ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli darajada chora tadbirlar amalga oshirilayotganligi, agar siyosiy mamlakat aholisi turmush darajasini oshishiga xizmat qilayotganligi bayon qilingan.

13. Tursunov U. Imodinov X. Fermer xo'jaliklarida xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini aniqlash. //Agroilm – O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 2008.

-№4. 73-74b.

Keyingi yillarda fermer xo'jaliklarining rivojlanishiga katta e'tibor berilmoqda.

Ularining rivojlanishi xorij texnologiyasidan foydalanish va mahsulotlarni chet-elag eksport qilish imkoniyatlarining aydo bo'lishi buxgalteriya xisobini ham halqoro moliyaviy xisobot standartlariga moslashtirish zaruriyatini vujudga keltiradi.

Malakada ishlab chiqarish xarajatlarini har bir ekin turi bo'yicha alohida xisobga olib borish taklif qilingan bo'lib, bu qishloq xo'jaligida mahsulot tannarxini xisoblashni tartibga soladi, har bir olingan asosiy mahsulotning tannarxini iqtisodiy asoslangan xolda aniqlash imkonini berib, hozirgi kunda mahsulot tannarxini aniqlashdagi ayrim noaniqliklarga barham berilib, umumiy moliyaviy natijani obyektiv aniqlash imkoni yaratiladi.

14. Umirzoqov O. P. Toshboyev A. J. Toshboyev A.A. Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod – moliya, 2007. -237 b.

Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish munosabatlarini shakllantirishning nazariy, huquqiy va iqtisodiy asoslari ushbu o'quv qo'llanmada batafsil yoritilgan. Shu bilan birga fermer xo'jaliklarining moddiy-texnik ta'minoti, mehnat resurslari, hizmat ko'rsatish infratuzilmasi, mahsulot ishlab chiqarish samaradorligi, ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish, mahsulot yetishtirishning ilg'or texnologiyalari, bozor subyektlari bilan iqtisodiy munosabatlari va kelgusida istiqbollari ham yoritilgan.

Fermer xo'jaliklarida qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish texnologiyasi, mahsulot tannarxi tarkibi “ Fermer xo'jaliklarida don va g'alla yetishtirish agrotexnologiyasi hamda chorvachilik faoliyatini tashkil etish” bobida bayon etilgan.

Bitiruv malakaviy ishini bajarishda o'quv qo'llanmadan yer-suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyatlari bo'yicha taklif va tavsiyalar berishda foydalanildi.

15. Qudratov T.Q. Qishloq xo'jalik korxonalarini xo'jalik faoliyatining

tahlili. Maruza matnlari. –Samarqand: SamQXI, 2002.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiyotini to'g'ri rivojlanishida ular faoliyatini to'g'ri va aniq tahlillar asosida olingan iqtisodiy axborotlar asosida qabul qilingan Qarorlarni o'z vaqtida amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu ma'ruzalar matni 14 mavzudan iborat bo'lib, qishloq xo'jalik faoliyati tahlilining predmeti, metodi, vazifalari, korxonalar faoliyatining sharoitlari, hajmi, yer resurslari va ulardan foydalanish tahlili, mehnat, resurslari, mehnat unumdorligi va mehnat xaqining tahlili, qishloq xo'jalik mahsulotlari realizatsiyasi, moliyaviy natijalar va rentabellik tahlili moliyaviy barqorlik va ko'rsatkichlar tahlili debitorlik va kreditorlik qarzlarning tahlili batafsil bayon qilingan.

Ushbu maruzalar matinida umuman olganimizda qishloq xo'jalik korxonalarini xo'jalik faoliyatini qamrab oluvchi barcha ko'rsatkichlarni aniqlash, tahlil qilish asosida tegishli xulosa va takliflar berish to'la yoritilgan bo'lib, bo'lardan bitiruv ishini yozishda keng foydalaniladi.

Fermer xo'jaliklarida mehnat resurslari, mehnat unumdorligi, ekinlari hosildorligi, mahsulotlar tannarxi, mahsulot bahosi, mahsulotlarni sotish kanallari, umuman olganda fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarishni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan jihatlardan bitiruv malakaviy ishini bajarishda foydalanildi.

2. TUMAN FERMER XO'JALIKLARINING RESURSLAR SALOHIYATI VA ULARDAN FOYDALANISH

2.1. Yer - suv resurslari va ulardan foydalanish

Qo'shrobot tumani fermer ho'jaliklari Samarqand viloyatida joylashgan bo'lib, tuman viloyat markazidan 100km, uzoqlikda joylashgan.

Qo'shrabot, Payariq, Ishtixon, Kattaqo'g'on tumanlari, Navoiy va Jizzax viloyatlari bilan ham chegaradosh bo'lib, chorvachilik va uzumchilik mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan tuman hisoblanadi.

Fermer xo'jaliklarning yer, suv resurslari va ulardan foydalanish. - O'zbekiston Respublikasi yer fondining 78 foizi cho'l, yarim cho'l, yaylov va o'tloqlardan iborat bo'lib, chorvachilikni keskin rivojlantirish uchun qulaydir. O'zbekiston yer zaxirasining 58 foizi foydalanish mumkin bo'lmagan yerlar tashkil etadi.

Respublikamizda yer resurslaridan foydalanishning huquqiy asoslari quyidagi Qonun hujjatlarida o'z aksini topgan.

1. Yer to'g'risidagi Qonun.
2. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi 1998 yil O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq 11 – sessiyasida qabul qilingan.
3. O'zbekiston Respublikasi “Davlat yer kodeksi” to'g'risidagi Qonun. Ushbu Qonun 1998 yil 30-aprelda Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq 11- sessiyada qabul qilingan.

Yer to'g'risidagi Qonun hujjatlarining asosiy vazifalari hozirgi va kelajak avlodlarning manfaatlarini ko'zlab yerdan ilmiy asoslangan tarzda oqqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni, tuproq unumdorligini tiklash tabiiy muhitni asrash va yaxshilashni xo'jalik yuritishning barcha shakllarini teng huquqiylik asosida rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratishni yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan hulqlarini himoya qilishni ta'minlash maqsadida yer munosabatlarini tartibga solishda. Shuningdek bu sohada qonunchilikni mustahkamlashdan iborat.

1998 yilda O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi tamonidan “Yer kodeksi”, “Dehqon xo'jaligi to'g'risida”gi Respublika Prezidenti tamonidan bu Qonunga

o'zgartirishlari va qo'shimchalar kiritib, uning yangi tahririni qabul qilinishi, qishloq xo'jaligining rivojlatirishnig, shu jumladan, fermer xo'jdaliklarini jadal tashkil etish, ularda xo'jalik yuritish mexanizmlarini yanada takomillashtirishning, huquqiy bazasi yaratib berildi.

Hozirgi kunda fermer xo'jaliklarini tashkil etishda ularga yer ajratish, boshqaruvchilarni tanlash, oshkora adolatli tender asosida o'tkazilishi ularni yanada tez sur'atlar bilan rivojlantirish imkoniyatlarini yaratib bermoqda.

Hozirgi paytda Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklarida 14,9 millionga yaqin kishi mehnat qilmoqda.

Fermer xo'jaligi aksariyat hollarda ortiqcha mehnat resurslari bo'lmagan yerlarda va xududlarda tashkil etiladi.

Yer uchastkalari berilgan fermer xo'jaligi o'z zimmasiga qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligini yerning kadastr bahosidan kam bo'lmasligini ta'minlash majburiyatini oladi.

Fermer xo'jaligi yer uchastkalarini yuritish uchun yer uchastkalaridan unumli foydalanadi.

Yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlardan;

Qayta tiklash etilayotgan va tugatilayotgan qishloq xo'jaligi kooperativlarining hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalarini, muassasalarining va tashkilotlarning yer uchastkalaridan;

Qishloq xo'jaligi kooperativlarining hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalarini, muassasalarining va tashkilotlarning yer uchastkalaridan;

O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi, katta va kichik daryolar, suv havzalari buylab joylashgan yer uchastkalari fermer xo'jaligi yuritish uchun Qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi buylab besh yuz metrli mintaqada faoliyati hayvonlarni, baliqlar, asalarilarni, hayvonot bog'lari va boshqa jonivorlarni ko'paytirish, o'tlatish va boqish bilan bog'liq bo'lgan chorvachilik, parrandachilik hamja boshqa yo'nalishdagi fermer xshjaliklariga yer uchastkalari berish taqiqlanadi. Frmer xo'jaliklarini yuritish uchun yer uchastkalri

tanlov asosida ijaraga ellik yilgacha bo'lgan, lekin o'ttiz yildan kam bo'lmagan muddatga beriladi.

Tumanmizdagi yerlarda sug'orma va lalmikor dehqonchilik qilinadi, hamda qishloq xo'jalik tovar mahsulotlaridan uzumlikchilik mahsulotlari va mevalarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.

Fermer xo'jaliklaridagi mavjud yer maydonlardan samarali foydalanish uchun ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu mavjud yerlardan samarali foydalanish uchun fermer xo'jaliklari xodimlariga ko'plab ma'suliyatlarni yuklaydi, ya'ni o'z vaqtida shudgorlash, o'g'itni berish, almashlab ekish sxemasi yo'lga qo'yilishi va boshqalarni talab etadi.

Uzumchilik mahsulotlarini yetishtirishda mikro o'g'itlar bilan oziqlantirishning o'simlikni o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'sirini o'rganishda eng avvalo shu xududning resurslar salohiyatini taxlil qilish lozim. Shuningdek, ulardan qay yo'sinda oqilona foydalanish chora-tadbirlarini ko'zda tutish maqsadga muvofiq. Shu nuqtai nazardan biz Qo'shrobot tuman fermer xo'jaliklarining resurslar salohiyatini o'rganib chiqamiz.

Yer resurslari, boshqa ishlab chiqarish vositalaridan tubdan farq qilgani holda, asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanib, bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega va qishloq xo'jalik ishlab chiqarish iqtisodiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Yerning o'ziga xos xususiyati shundaki, muntazam ishlov berilsa, fan-texnika yutuqlari joriy etilsa, agrotexnologik qoidalarga amal qilinsa, yer eskirmaydi, aksincha yerning ishlab chiqarish quvvati oshadi.

Respublikaning yer fondi ulardan foydalanishning asosiy maqsadiga qarab quyidagi guruhlariga ajratiladi:

1. Qishloq xo'jaligi yerlari: sug'oriladigan va sug'orilmaydigan (lalmi) yerlar, haydaladigan, pichanzorlar, yaylovlar, ko'p yillik mevali daraxtzor va tokzorlar joylashgan yerlar;
2. Aholi punktlari yerlari;
3. Sanoat, transport, aloqa, mudofaa maqsadlarida va boshqa yo'nalishlarda foydalanish uchun mo'ljallangan yerlar;

4. Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va hokazo yerlar;
5. Tarixiy-manadiy maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljallangan yerlar;
6. O'rmon fondi yerlari;
7. Suv fondi yerlari;
8. Zahira yerlar.

Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi xo'jaliklarga berkitilgan yer resurslaridan foydalanish samaradorligi sifatida ham, qishloq xo'jaligiga yaroqli yer va uning alohida turlari bo'yicha foydalanishning samaradorligi sifatida ham tavsiflaydigan ko'rsatkichlar tizimi orqali ifodalanishi mumkin. Ko'rsatkichlarning bir qismi turli xil yer resurslari maydonlari hajmining miqdoriy o'zgarishlarini tavsiflaydi va ma'lum darajada ulardan foydalanishning ekstensiv tavsifini aks ettiradi.

Boshqa qismi yerdan foydalanishning intensiv darajasini tavsiflaydi, ya'ni 1 gektar maydon hisobiga to'g'ri keladigan u yoki bu ishlab chiqarish samarasini aks ettiradi.

Yer resurslaridan samarali foydalanish o'z navbatida suv resurslaridan ham oqilona foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Chunki, o'simlik dunyosini suvsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Buni issiq o'lka hisoblangan bizning Respublikamizda yaqqol ko'rish mumkin. Shuning uchun suvni tejash, undan oqilona foydalanish Qonun bilan belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 6 mayda qabul qilingan "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunida suvning davlat mulki ekanligi, umumiy bog'liq hisoblanishni, suvdan oqtlona foydalanish lozimligi va u davlat tamonidan ko'riqlanishi ta'kidlab o'tilgan.

Sug'oriladigan yerlarda suvdan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, ular Qonunda quyidagicha belgilab qo'yilgan.

"Sug'oriladigan yerlarda kanallar, murakkab muxandislik inshootlari, mileorasiya shaxobchalari barpo etilganligi yana shunday yerlarning o'ziga xos xususiyatidir".

2.1.1 jadval

Qo'shrobot tumani fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jalik ekin maydonlari tarkibi (2011-2013 yy.)*

№	Ko'rsatkiçlar	Yillar						2013 yil 2011 yilga nisbatan o'zgarishi	
		2011		2012		2013		+;-	%
		ga	%	ga	%	ga	%		
1.	Jami don maydoni	0	0	4238	83,3	4650	83,4	4650	100
2.	Sabzavot	346	28,0	86	1,7	160	2,9	-186	46,2
3.	Kartoshka	160	13,0	20	0,4	45	0,8	-115	28,1
4.	Poliz maydoni	75	6,0	75	1,5	55	0,9	-20	73,3
5.	Meva	78	6,0	78	1,5	78	1,4	0	100
6.	Uzum	590	47,0	590	11,6	590	10,6	0	100
7.	Jami ekin maydoni	1249	100	5087	100	5578	100	4329	4,5 marta

*Manba: Qo'shrobot tuman qishloq va suv xo'jalik boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Yerdan foydalanish mulkchilikning qaysi shakliga asoslanganligidan qat'iy nazar suv fondi yerlardan, sug'oriladigan yerlar doirasidagi xo'jaliklar aro kanallar va inshootlardan yer osti suvi chiqargichlari yagona suv xo'jaligi tizimi sifatida foydalaniladi va ular davlat mulki hisoblanib, ularni xususiylashtirish mumkin emas.

Sug'oriladigan dehqonchilik ehtiyojlari uchun suv obyektlaridan foydalanish suvlardan limit bo'yicha foydalanishni belgilab tartibiga rioya etgan holda amalga oshiriladi.

Suv olish va uni xisob-kitob qilish ro'yxatdan o'tkazilgan suv manbalaridan (xo'jalik kanallarining bosh inshootlaridan, quduqlardan, nasos stansiyalari va

boshqa suv olish inshootlaridan) suv ajratish joylarida tuman va suv xo'jaligi organi bilan tuzilgan shartnomaga binoan amalga oshiriladi.

Suvdan o'simlikning talablaridan kelib chiqqan xolda rejali va meyorda foydalanish yer resurslaridan foydalanishning va bir butun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga olib keladi.

Mamlakatimizda suv zaxirasi juda kam Andijon qishloq xo'jaligi institutining statistik ma'lumotlariga ko'ra bir davrlarda amudaryoning suv o'tkazish qobiliyati 41 kub km ga, Sirdaryoniki esa 27,5 kub km ga teng edi.

Hozirgi paytda har ikkala daryoning suvi keskin pasaygan va mamlakatda 58/kub km miqdorda suv zaxirasi bo'lib, bu mavjud oborotdagi qishloq xo'jalik yerlarining 16-17 foizini sug'orishga yetishi xisoblanib chiqilgan. Yer osti suvlaridan foydalanish evaziga suv miqdori 60 kub km ni tashkil etishi hisoblangan.

Shuningdek, mamlakatimizda suvdan tejab va unumli foydalanish uchun undan foydalanuvchilar oldiga katta vazafalar qo'yilgan.

Fermer xo'jaliklarida davlat buyurtmasiga ko'ra shartnoma asosida g'alla va g'alla xom ashyosi yetishtiriladi.

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bu ekin turlari suv sevar o'simliklardir. Shuning uchun ham bu ekinlar suvni ko'p talab etadi. Hozirgi paytda suvning keskin kamayishi, qola versa suv naxining oshishi ekin turlari tan narxi keskin ko'payishiga olib kelmoqda.

2.2 Mehnat resurslari va ulardan foydalanish

Fermer xo'jaliklarining hamma sohalaridagi faoliyatida mehnat resurslari muxum o'rinni egallaydi. Jamiyatning moddiy va ma'naviy boyliklarining tabiiy-iqtisodiy resurslari va manbalari inson mehnati xisoblanadi.

1995 yil 21dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining I bob 8-moddasida mehnatning ulug'vorligi to'g'risida shunday deyilgan:

“Har bir shaxsning mehnat huquqlarini himoya qilish kafolatlanadi, bu himoya mehnat to'g'risidagi Qonun hujjatlariga rioya qilishni, ishni tekshiruvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek mehnat nizolarini ko'ruvchi organlar tamonidan amalga oshiriladi”.

Jamiyatning moddiy va ma'daniya boyliklarining manbalari inson mehnati hisoblanadi.

U.Petti XVII asrda mehnatni boylikning otasi deb atalgan. Mehnat bu insonning maqsadli faoliyati bo'lib, bu jarayonda u tabiat predmetlarini o'zining extiyojlarini qondirish uchun moslashtiradi va o'zgartiradi, o'z kuchini qo'shgani halda inson, mehnat qurollaridan foydalanib tabiat insonlarni, kishilarni moddiy va ma'naviy extiyojlarini qondiradigan moddiy nematlarga, boyliklarga aylantiradi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishsamaradorligini mehnat resurslarining miqdoriga, tartibiga, malakasiga va ulardan foydalanish samaradorligiga bog'liq.

Fermer xo'jaliklarining mehnat tarkibiga:

Doimiy, mavsumiy va vaqtinchalik ishlar bo'ladi.

Shuningdek, xodimlar mehnat shtatda turmaydigan, ko'zga kurinmas mehnatkashlarga, o'smirlar, pensionerlar kiradilar.

Shu jumladan

1. Doimiy ishlovchilarga – muddatsiz ishga qabul qilinganlar;
2. Mavsumiy ishlovchilar — 6 oygacha muddatga qabul qilinadilar;
3. Vaqtinchalik ishlovchilar—2 oygacha muddatga qabul qilinganlar kiritiladi.

Fermer xo'jaliklarida mehnat resurslarini tashkil etish va ulardan foydalanish o'ziga xos xususiyatlari mavjud:

1. Biologik ishlab chiqarish vositalari tirik organizmlar tuproq, o'simlik, hayvonlarni rivojlantirish uchun xodimlar mehnat mazmuniga yo'naltirilganligi. Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish tirik organizmlarning rivojlanish, o'zgarishiga, ularning tabiatining noorganik elementidan organik moddalarga sintezlashuviga bog'liqdir.

2. Mehnat resurslaridan foydalanishning samaradorligi tabiiy, xususiy yerning unumdorligi va ob-havo iqlim sharoitlariga bog'liq.

Chunki iqlim tez o'zgarib turganligi uchun o'simlik va hayvonotga qulay sharoit yaratish lozimligidir.

3. Fermer xo'jaliklarida ko'p xodimlarning bir qancha mehnat vazifalarini bajarishi.

Fermer xo'jaligi xodimlari alohida texnologik operatsiyalarni bajarishga ixtisoslashgan tor malakali bo'lmasligi kerak.

4. Fermer xo'jaliklarida mehnat jarayonlarida o'z-o'zini boshqarish, ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlaridan to'g'ri va oqilona foydalanish.

5. Fermer xo'jaligi xodimlari daromadining dehqonchilikda va chorvachilikda provard iqtisodiy natijalarga bog'liqligi. Bu bog'liqlik mehnat operatsiyalarini bajarish paytida xodimlardan texnologik talblarga rioya qilishda o'zini qattiq nazorat qilishning bevosita sharti bo'lib hisoblanadi.

Fermer xo'jaligining rivojlanish darajasi, avvalo mehnat resurslari bilan ta'minlanish holatiga bog'liqdir. Bu esa quyidagi ko'rsatkichlar bilan harakterlanadi.

— mehnat resurslari bilan ta'minlanish darajasi, avvalo, mehnat resurslari bilan ta'minlanish holatiga bog'liqdir. Bu esa quyidagi ko'rsatkichlar bilan harakterlanadi:

— o'rtacha yillik xodimlar soni ko'rsatkichi. Bu ko'rsatkich xodimlarning sonini yil davomidagi kunlar (365kunga) soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi;

— o'rtacha yillik xodimlar soni ko'rsatkichi. Bu ko'rsatkich yillik ishlab chiqarish yuklamasi ($237 * 7$ yoki $187 * 7$) haqiqatda bajarilgan ish vaqti

miqdoriga bo'lish orqali topiladi;

— ish kuchining ko'chib yurish koefitsenti. Bu koefitsent ishdan ketganlarni o'rtacha xisobdagi xodimlar soniga nisbati bilan aniqlanadi.

Fermer xo'jaliklarida mehnat va mehnat unumdori ko'rsatilgan asosiy mezon ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Mehnat unumdorligi deb, bir birlik vaqt ichida yetishtirilgan mahsulot miqdori yoki bir birlik mahsulot birligining yetishtirish uchun ketgan vaqt birligiga aytiladi.

Bir kishi – soat xisobiga yetishtirilgan mahsulot miqdori,

$$V = \frac{Q}{T}$$

Bunda Q - ishlab chiqarilgan mahsulotning jami miqdori,

T - jami ishlab chiqarilgan mahsulotga sarflangan mehnat sarfi.

V – 1 kishi soat ichida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori.

Ikki kishi- kuni xisobiga yetishtirilgan mahsulot miqdori

$$V = \frac{Q}{T}$$

Bunda, T - jami mahsulotni yetishtirish uchun sarf bo'lgan kishi-kuni.

V - 1 kishi kunida yetishtirilgan mahsulot miqdori.

3. O'rtacha bir xodim xisobiga yetishtirilgan mahsulot miqdori.

Mehnat unumdorligining bilvosita ko'rsatkichlari bo'lib quyidagilar xisoblanadi.

1. Mahsulot birligi uchun sarf bo'lgan kishi-soat miqdri (1s mahsulotni yetishtirish uchun sarf bo'lgan kishi-soat miqdori)

$$t = \frac{T}{Q};$$

T - jami kishi soati,

Q - jami mahsulot miqdori,

t - 1s mahsulot yetishtirish uchun sarf bo'lgan kishi soati.

2. Mahsulot birligi uchun sarf bo'lgan kishi kuni miqdori,

$$t = \frac{T}{Q};$$

T-jami kishi kuni,

Q- jami mahsulot miqdori

t- 1s mahsulot yetishtirish uchun sarf bo'lgan kish kuni.

Ma'lumotlar asosida Qo'shrobot tumani fermer xo'jaliklari mehnat resurslarini tahlil qilamiz (2.2.1-jadval).

2.2.1-jadval

Qo'shrobot tumani fermer xo'jaliklarida mehnat resurslari tarkibi tahlili (kishi, 2011-2013 yy.)*

№	Ko'rsatkichlar	Yillar			2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarish	
		2011	2012	2013	+/-	%
	Fermer xo'jaliklari a'zolari	2915	2820	2944	29	101,0
-	Sh.j.: xotin-qizlar	1778	1720	1796	18	101,0
1.	Doimiy ishchilar	2536	2453	2561	25	101,0
2.	Yollanma ishchilar	379	367	383	4	101,1
3.	Rahbar xodimlar	986	986	986	0	100,0

*Manba: Qo'shrobot tuman fermer xo'jaliklarining 2011-2013 yilgi ma'lumotlari.

2.2.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, fermer xo'jaliklari soni 2013 yilda 2944 kishi bo'lib, 2011 yilga nisbatan 29 kishiga yoki 6,9 foizga, shundan xotin-qizlar 2013 yilda 1796 kishi va 2011 yilga nisbatan 18 kishiga yoki 101,0 foizga oshgan. Tahlil ma'lumotlari fermer xo'jaliklari mehnat resurslari tarkibida doimiy va yollanma ishchilar soni oshganligini ko'rsatdi.

2.3. Moddiy resurslar va ulardan foydalanish

Qishloq xo'jaligida foydalanayotgan moddiy texnika resurslari orasida katta o'rin mehnat qurollari va mehnat predmetlari egallaydi. Mehnat qurollari va mehnat predmetlari birgalikda ishlab chiqarish vositalarini tashkil etadi. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan mehnat qurollarini natura buyum ko'rinishda mehnat vositalari deb, pul ko'rinishda esa fond deb yuritiladi.

Mehnat vositalari ishlab chiqarish jarayonida ko'p marta qatnashib, asta sekin qiymatini mahsulotga o'tkazadi. Asosiy vositalarning iqtisodiy roli mulk shakli bilan harakterlanada.

Asosiy fondlar ishlab chiqarishga taaluqli va taaluqli bo'lmagan fondlardan iborat bo'ladi.

Ishlab chiqarishga taaluqli fondlar asosiy va yordamchi hamda xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish tarmoqlarida uzoq muddat ishlatiladigan va bevosita ishlab chiqarish jarayonida qatnashadigan mehnat vositalari yig'indisidan iborat.

Ishlab chiqarishga taaluqli bo'lmagan fondlar – bu ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashmaydigan, lekin korxonaning ishlab chiqarish, xo'jalik faoliyati normal ketishi uchun zarur bo'lgan mehnat vositalaridan iborat.

Moddiy resurslar inson tamonidan yaratilgan bo'lib, ikkiga bo'linadi:

1. Asosiy vositalar.
2. Aylanma vositalar.

Asosiy vositalar qishloq xo'jalik ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt ishtirok etib, o'zining natura buyum shaklini saqlab qoladi. Uning qiymati amortizasiya shaklida yangidan yaratilgan mahsulot qiymatiga asta- sekin o'tib, shu mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlariga ya'ni, tannarxiga qo'shiladi.

Aylanma vositalar asosiy vositalardan farqli o'laroq, ishlab chiqarish jarayonida bir marta ishtirok etib, o'zlarining shakllarini o'zgartiradi va bir vaqtning o'zida o'z qiymatini yangidan yaratgan mahsulot qiymatiga to'liq o'tkazadi. Bunga urug'lik, yem-xashak, yoqilg'i-moylash materiallari, o'g'it va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Ma'lumki, ishlab chiqarish vositalari mahsulot ishlab chiqarish jarayonida

xizmat qilish muddati va ishtirok etish harakteriga qarab, asosiy va aylanma fondlarga bo'linadi.

Asosiy fondlar binolar va inshootlar, kuch va ish mashinalari, transport vositalari va boshqa mehnat vositalaridan iborat bo'lib, bular yordamida mahsulot tayyorlanadi. Ular ishlab chiqarish prosessida o'zlarining dastlabki natura shakllarini o'zgartirmaydigan, yangidan yaratilgan mahsulotni yoki bajarilgan ishga asosiy fondlarning qiymatini qism-qismlarga bo'lib asta-sekinlik bilan o'tkazib boradi.

Asosiy fondlar xo'jalikda, ya'ni bir necha yil davomida foydalaniladi.

Aylanma fondlarga mahsulot tayyorlanadigan mehnat buyumlari kiradi. Bu urug'lik, yem-hashak, yoqilg'i-moylash materiallari, o'g'it va boshqalar kiradi.

Asosiy fondlarni baholash 4 turda amalga oshiriladi:

1. Asosiy fondlarning dastlabki qiymati;

U ham 3ta elementni tanlab oladi:

— sotib olish;

— tayyorlash;

— o'rnatish xarajatlari.

2. Qoldiq qiymat. Bu aniqlash uchun eskirish summasi chiqarib tashlanadi.

3. Tiklash qiymati-tiklash qiymati qayta baholanib, balans qiymatiga yoziladi.

4. Tiklash – eskirish qiymati.

Bu aniqlash uchun tiklash qiymatining kamaytirilgan yoki ko'paytirilgan qismi chegiriladi yoki qo'shiladi.

Xo'jalikning fondlar bilan ta'minlanishi quyidagi ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi:

1. Asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanish koeffitsenti.

Buni aniqlash uchun asosiy ishlab chiqarish fondlarinig o'rtacha yillik qiymatiga qishloq xo'jalik yer maydonlariga bo'linadi;

2. Energetik fondlar bilan ta'minlanish koeffitsenti;

Buni aniqlash uchun ot kuchi hisobida aniqlanadi.

Energetik quvvatlarning jami ot kuchini jamini qishloq xo'jalik yerlariga bo'lamiz.

Asosiy fondlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari quyidagilar:

1. Fond qaytimi;
2. Fond sig'imi;
3. Fond rentabilligi.

Fond qaytimini aniqlash uchun yalpi mahsulot hajmini asosiy ishlab chiqarish fondlarini o'rtacha yillik qiymatiga bo'lamiz.

$$Ya M$$
$$Fq = \frac{Ya M}{AF}$$
$$AF$$

Xisobot yilidagi fond qaytimini bazis yilidagi fond qaytimiga solishtirib o'zgarishi aniqlanadi.

Ushbu o'zgarish formuladan ko'rinib turibdiki, ikki omil xisobiga sodir bo'ladi:

1. Asosiy fondlar hajmining o'zgarishi;
2. Yalpi mahsulot hajmining o'zgarishi.

Fond sig'imifond qaytimining ko'rsatkichi aksini ifodalaydi.

$$AF$$
$$Fs = \frac{AF}{YaM}$$
$$YaM$$

Fond rentabelligini aniqlash uchun sof foydani asosiy ishlab – chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymatiga bo'linadi, 1so'mlik yoki 100sshmlik asosiy fond hisobiga olingan foyda summasiga kelib chiqadi.

$$SF$$
$$Fr = \frac{SF}{AF}$$
$$AF$$

Endi tuman fermer xo'jaliklaridagi mavjud texnikalarining mavjudligini quyidagi jadval ma'lumotidan ko'rib chiqamiz.

Quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Qo'shrobot tumani fermer xo'jaliklarida jami 2013 yilda 265 ta qishloq xo'jalik texnikalari mavjud.

2.3.1-jadval

Qo'shrobot tumani fermer xo'jaliklarida mavjud qishloq xo'jalik texnikalari (dona, 2011-2013 yy.)*

T/r	Ko'rsatkichlar	Yillar			2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarishi, +/-
		2011	2012	2013	
1.	Jami qishloq xo'jalik texnikalari	227	234	296	69
2.	Barcha rusumdagi traktorlar	22	23	25	3
3.	Transport traktorlar	190	195	240	50
4.	G'alla o'rish kombaynlari	5	6	7	2
5.	Traktor tirkamalari	10	10	24	14

*Manba: Qo'shrobot tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Ishlab chiqarish fondlari qishloq xo'jaligida alohida iqtisodiy kategoriya shaklida foydalaniladi.

Ma'lumki, asosiy ishlab chiqarish fondlari deganda ishlab chiqarish jarayonida bir necha bor ishtirok etib, o'zining tashqi ko'rinishini o'zgartirmasdan, qiymatini mahsulot tannarxiga asta-sekinlik bilan o'tkazib boruvchi vositalar tushuniladi.

Bularga ishlab chiqarish binolari, inshootlar, mashina va qurollar, transport vositalari, xo'jalik va ishlab chiqarish inventarlari, ishchi va mahsuldor hayvonlar, ko'p yillik daraxtlar va boshqa, ya'ni bir yildan ortiq ishlatiladigan vositalar kiradi.

Hozirgi vaqtda amaldagi klassifikasiyaga muvofiq xo'jaliklardagi asosiy ishlab chiqarish fondlari o'zining moddiy (natural) tavsifiga va ishlab chiqarish jarayonida

bajaradigan xizmatiga qarab quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan asosiy ishlab chiqarish fondlari (imorat, inshootlar, uzatuvchi moslamalar, mashina va qurollar, mahsuldor hayvonlar, ko'p yillik daraxtlar va boshqalar);

2. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan ishlab chiqarish fondlari (sanoat ishlab chiqarish vositalari, qurilish vositalari, savdo va umumovqatlanish vositalari va boshqalar).

Qishloq xo'jaligida ishlatiladigan asosiy va aylanma fondlarni iqtisodiy samaradorligi quyidagi yo'llar bilan amalga oshirish mumkin:

ilg'or texnikani qo'llash, qishloq xo'jaligini intensivlashtirishni ixtisoslashtirish;

qishloq xo'jaligida ilmiy asoslangan xo'jalik yuritish tizimini qo'llash;

xo'jalikda mavjud bo'lgan ishlab chiqarish fondlaridan maqsadga muvofiq tejamli foydalanish;

asosiy va aylanma fondlarni bir biriga rasional bog'lash va ilg'orlar tajribasini ishlab chiqarishga tadbiiq qilish.

Demak, Qo'shrobot tumani fermer xo'jaliklarida uzum yetishtirish samaradorligini oshirishda mavjud ishlab chiqarish fondlaridan oqilona foydalanish, ilg'orlar tajrilaridan keng foydalanish shu kunning ustivor vaizifalaridan hisoblanadi.

3. FERMER XO'JALIKLARIDA UZUMCHILIKDA TANNARX TAHLILI

3.1. Tannarx tushunchasi, ko'rsatkichlari va uni hisoblash usullari

Qishloq xo'jalik mahsulotini ishlab chiqarish tarmoqda ishlab chiqarish resurslarini mehnat, yer, suv va moddiy resurslarni ishlatish bilan chambarchast bog'langan, qaysiki ishlab chiqarish jarayonida qisman yoki butunlay iste'mol qilinadi, ularning qiymati esa tayyor mahsulotga o'tadi. Iste'mol qilingan va mahsulotga o'tkazilgan ishlab chiqarish resurslarining jami mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari deyiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlari ikki xil bo'ladi: ijtimoiy xarajatlar va koxona xarajatlari.

Ijtimoiy xarajatlar bu jamiyatning u yoki bu mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlarning jamidir. Ular mahsulot qiymatidan tashkil topadi va o'z ichiga quyidagilarni oladi.

1. Mehnat haqi xarajatlari;
2. Yer uchun to'lovlar;
3. Iste'mol qilinadigan moddiy resurslar qiymati;
4. Xodimlar tomonidan yaratilgan qo'shimcha mahsulot qiymati.

Bu qiymat boshqarish, maorif, sog'liqni saqlash, mudofaa, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va boshqalarga qilingan xarajatlarni boplashga sarflanadi. Qiymat birinchi 3 ta qismi koxona xarajatlarini tashkil etadi va o'z ichiga mehnat haqini, yer uchun to'lovlarni, ishlab chiqarishda qatnashadigan asosiy vositalarning yillik eskirishini, mashina uskunalari, binoalar va boshqa, shuningdek ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan materiallarning (urug'lik, yem-xashak, o'g'it yoqilg'i va boshqalar) qiymatini oladi.

Ma'lumki, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari xo'jalik yuritishning barcha shakllarida mahsulot qiymatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Xarajatlarning qiymatdan farqi takror ishlab chiqarish jarayonining archa fazalarida namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarish sferasida xarajatlarning shakllanishi qiymat tashkil topishining birinchi etabidir. Bunda ishlab chiqarishning o'zi

mehnat jarayoni va qiymat yaratish jarayonining birligi bo'lib xarakat qiladi. Bu yerda konkret mehnat iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalari qiymatini mahsulotga o'tkazadi, abstrakt mehnat esa yangi qiymat yaratadi.

Ishlab chiqarish sferasida qiymat va korxonada xarajatlari o'rtasidagi farq katta amaliy ahamiyatga ega.

Nooqilona xo'jalik yuritish, ishlab chiqarish resurslaridan yetarli darajada samarali foydalanmaslik, jonli va buyumlashgan mehnat xarajatlari, mahsulot tshlayu chiqarish xarajatlariga kiradi, lekin uning ijtimoiy qiymatiga kirmaydi.

Taqsimot sferasida xarajatlarning qiymatidan farqi shunda namoyon bo'ladiki, bunda xarajatlar butunlayicha korxonada qoplanadi, qiymat qisman qo'shamcha mahsulot qiymatining qismini chiqarib tashlab qoplanadi. Ayirboshlash sferasida xarajatlarning normal xarakati faqat uning hamma elementdarini ekvivalent ravishda qoplash asosida amalga oshadi. Qiymatning ma'lum bir qismi sifatida ishlab chiqarish xarajatlari pulda ifodalanib hisoblanadi.

Shuning uchun ishlab chiqarish xarajatlari ishlab chiqarish resurslarining qo'llanilgani emas, balki iste'mol qilingan qiymati kiradi. Zaruriy mehnat xarajatlari ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga shu mehnat yaratgan qiymat miqdori bo'yicha emas, balki mehnat haqi xarajatlari bo'yicha qo'shiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlariga yer resurslari qiymati emas, faqat undan foydalanish bilan bog'liq xarajatlar (yer uchun to'lov, ijara haqi va boshqa) asosiy vositalarni qiymati emas, faqat amortizatsiya summasi, moddiy aborot vositalari qiymati emas, faqat imaterail xarajat miqdori kiradi. Korxonada mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari tannarxning iqtisodiy asosi bo'lib hisoblanadi.

Demak, mahsulot tannarxi korxonada mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun joriy, ya'ni xar yillik pulda ifodalangan xarajatlarning jami yig'indisidir.

Korxonaning mahsulot olish uchun sarflarga hamma ishlab chiqarish xarajatlari yig'indisi yalpi mahsulot tannarxini ifodalaydi va quyidagicha xisoblanadi.

$$YaMT = I.Ch.X \text{ yoki } YaMT = MX + YeT + A + Mat. Xar$$

Mahsulot birligining tannarxi ishlab chiqarish xarajatlarini yalpi mahsulot

miqdoriga nisbati bilan topiladi.

$$I/chX$$

$$T = \text{-----}$$

$$YaM$$

yoki

$$MX + YeT + A + Mat. Xar$$

$$T = \text{-----}$$

$$YaM$$

Mahsulot birligi tannarxidan tashqari ayrim ishlarining (traktor, avtotransport, ishchi hayvonlar va boshqalar), shuningdek qishloq xo'jaligiga yaroqli yerga ishlov berish, bir bosh hayvondan mahsulot olish xarajatlarini ham aniqlanadi.

Xarajatlarning shakllanish etaplariga qarab, tannarxning quyidagi turlari mavjud bo'ladi:

1. Texnologik
2. Ishlab chiqarish
3. Kommersiya yoki to'la tannarx

1. Texnologik tannarxi, mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek bo'limlarda brigada, firma va sexlarda ishlab chiqarishni boshqarish va tashkil qilish bilan bog'liq xarajatlar kiradi.

2. Ishlab chiqarish tannarxi texnologik tannarxning yig'indisi va korxonani va ishlab chiqarishni butunlay boshqarish bilan bog'liq xarajatlarning (umumxo'jalik xarajatlari) yig'indisini ifodalaydi.

3. Tannarx ishlab chiqarish xarajatlarning jamisi va mahsulotni sotish bilan bog'liq xarajatlarning yig'indisini ifodalaydi. U faqat tovar mahsulot uchun hisoblanadi. Bundan tashqari xisoblash xarakteriga qarab quyidagicha tannarx turlari aniqlanadi:

1. Reja tannarxi.
2. Dastlabki, vaqtinchalik va taxminiy tannarx.
3. Haqiqiy tannarx.

1. Reja tannarxi, bu korxonada rejalashtirayotgan davrdagi mahsulot birligiga sarflanishi lozim bo'lgan xarajatlar yig'indisini ifodalaydi

2. Vaqtinchalik yoki taxminiy tannarx esa 9 oylik haqiqiy xarajatlarni va 4-kvartaldagi reja xarajatlarni o'z ichiga oladi.

3. Haqiqiy tannarx esa yil oxirida korxonada xo'jalik faoliyatini yakun qilishda yillik xisobotlar asosida xisoblanadi.

U olingan yalpi mahsulot uchun sarflangan haqiqiy xarajatlar asosida xisoblanadi. Mahsulot tannarxi shakllanish joyiga qarab individual (aniq korxonalarda), zona va tarmoq tannarxlariga bo'linadi (mamlakat bo'yicha o'rtacha).

Mahsulot tannarxga kiruvchi, barcha ishlab chiqarish xarajatlari turli belgilari bo'yicha guruxlanadi.

1. Ishlab chiqarish jarayonidagi roli bo'yicha quyidagilarga bo'linadi.

2. Ishlab chiqarilgan mahsulotga olib borilishi va tannarxga qo'shilish usuli bo'yicha quyidagilarga bo'linadi.

3. Tarkibi bo'yicha quyidagilarga bo'linadi.

4. Ishlab chiqarish hajmiga bog'liqlik darajasi bo'yicha quyidagilarga bo'linadi.

5. Ishlab chiqarishda qatnashish vaqti bo'yicha xarajatlar quyidagilarga bo'linadi.

Xarajatlarning iqtisodiy elementlari quyidagilardir: ish haqi xarajatlari ijtimoiy sug'urta bilan, material xarajatlar (urug'lik, yem-xashak, YoMM, o'g'itlar, zaxira qismlar, kapital va joriy ta'mirlash), asosiy vositalar amortizatsiyasi sug'urta to'lovlari va boshqa xarajatlar. Qishloq xo'jaligida mahsulot tannarxi xisoblash tarmoq hususiyatlaridan kelib chiqadigan bir qancha hususiyatlarga ega:

1. Uzunchilikda mahsulot ishlab chiqarishning yillik sikli, shuningdek ish vaqti va ishlab chiqarish vaqtining mos kilmasligi mahsulot tannarxini xisoblashni faqat xo'jalik yili tugagandan keyin amalga oshirish kerakligini ko'rsatadi.

2. Ko'pgina uzunchilik ekinlari va turli tuman chorvachilik mahsulotlarini olish bir-biri bilan bog'liq.

3. Tugallanmagan ishlab chiqarish summasini aniqlash faqat yil oxirida 1-yanvar xolatida aniqlanadi. Bu xarajatlarga kelgusi yil xosili uchun qilingan xarajatlar kiradi.

4. Haqiqiy tannarxi faqat yil oxirida aniqlanadi, yil davrida esa reja xarajatlari bilan xisoblanadi, bu esa haqiqiy xarajatlarni yil oxirigacha aniqlash imkoniyatini bermaydi.

5. Turli xil mahsulotlarning turli joylarga yetkazish xarajatlarning turli – tumanligi.

Aloxida mahsulot turlari bo'yicha tannarxni xisoblashda avvalo asosiy, tutash yoki qo'shimcha va yordamchi mahsulotlarning turlari bo'yicha miqdori aniqlanadi. Ammo xar bir mahsulot turi bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlarning uchyotini aloxida tashkil qilib bo'lmaydi. Shuning uchun barcha turdagi mahsulotlar o'rtasida ishlab chiqarish xarajatlarni taqsimlash quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi; xarajatlarni bevosita mahsulot turlariga olib borish;

Alohida qishloq xo'jalik ekinlari turlari mahsulotlari bo'yicha, uzum mahsulotlari turlari uchun umumiy bo'lgan belgilari bo'yicha xarajatlar olinadigan mahsulot turlari uchun umumiy bo'lgan belgilardan birining miqdori ahamiyatiga proporsional ravishda taqsimlanadi.

Aloxida turdagi mahsulotlarni olishga ketgan xarajatlarni ekspert yo'li bilan baholash va ularni ma'lum bir ko'rsatkichlarda aks ettirish;

Ma'lum bir ekindan olinadigan mahsulot turi bo'yicha xarajatlarni, markazlashgan tartibda o'rnatiladigan iqtisodiy jixatdan asoslangan koeffitsentlarni qo'llash yordamida, sentner-koeffitsent va boshqa shartli birliklarning miqdoriga proporsional taqsimlanadi.

3.2. Uzumchilikda mahsulotlar tannarxining hozirgi holati tahlili

Fermer xo'jaliklarida ham boshqa fermer xo'jaliklari singari yillik moliyaviy xisobotning hisobot davri "Buhgalteriya xisobi to'g'risida"gi qonunning 18-moddasida belgilanganidek, 1-yanvardan 31-dekabrgacha bo'lgan davr hisoblanadi. Fermer xo'jaliklarida yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni haqiqiy tannarxi yil oxirida aniqlanadi. Tannarxi aniqlanadigan mahsulot kalkulyasiya ob'ekti hisoblanadi. O'simlikchilikdan olingan asosiy va yondosh mahsulotlarni tannarxi aniqlanadi. Qo'shimcha mahsulotlar tannarxi aniqlanmaydi, ular ma'lum bahoda baholanib eami xarajatdan chegirib tashlanadi.

O'simlikchilikda mahsulot tannarxni aniqlashdan oldin buhgalteriya hisobining ma'lumotlari tekshiriladi.

Mahsulotning haqiqiy tannarxini aniqlashdan oldin quyidagilar to'g'riligi tekshirishdan o'tkaziladi.

1. Ishlab chiqarish xarajatlarini har bir tarmoq bo'yicha va fermer xo'jaligi bo'yicha to'liq aks ettirilganligi;

2. Asosiy va qo'shimcha mahsulotlarni to'liq daromadga olinganligi;

3. Tabiiy ofat natijasida nobud bo'lgan ekinlar xarajatlari va inventarizasiya natijalarini to'liq hisobda aks ettirilganligi;

4. Yordamchi ishlab chiqarish bo'linmalari tamonidan ko'rsatilgn xizmatlar va bajarilgan ishlar bo'yicha kalkulyatsiya farqlarini o'tkazilganligi;

5. Taqsimlanadigan xarajatlar: umumiy ishlab chiqarish, tugallanmagan ishlabchiqarish, taqsimlanadigan joriy ta'mirlash, taqsimlanadigan amortizasiya, taqsimlanadigan sug'orish va kelgusi davr xarajatlari to'g'ri taqsimlanganligi tekshirishdan o'tkaziladi.

Xarajatlarni kalkulyasiya obektlari yuo'yicha taqsimlashning bir qancha usullari mavjud (ushbu usullar "Kalkulyasiya usullari" ham deyiladi), bular:

1. Oddiy usul- Ushbu usul bir ekindan bir turdagi mahsulot olinsa, ya'ni "Xarajat ob'yekti" bilan "Kalkulyasiya obyekti" bir biriga mos kelsa qo'llaniladi. Bunda jami xarajat olingan mahsulot miqdoriga bo'linadi.

2. Qo'shimcha mahsulotlar qiymati chegirilish usuli. Ushbu usulda jami xarajatdan qo'shimcha mahsulotlar qiymati chegirilib, qolgan xarajatlar "Kalkulyasiya obyekti»ga olib borilib mahsulot tannarxi naiqlanadi.

3. O'rtacha sotish baholari asosida mahsulot tannarxi usuli. Ushbu usulda jami xarajatlar "kalkulyasiya obyekti»lari o'rtasida ularni o'rtacha sotish baholari asosida aniqlangan qiymatlarini salmog'iga mos ravishda taqsimlanib, mahsulot tannarxi aniqlanadi.

4. Koeffitsentlar asosida mahsulotlar tannarxi usuli. Ushbu usulda jami xarajatdan qo'shimcha mahsulotlar qiymati chegirilib, qolgan xarajatlar "Kalkulyasiya ob'yekti»lari o'rtasida belgilangan koeffitsentlar asosida shartli mahsulotga aylantirilgan salmog'iga mos ravishda taqsimlanib, mahsulot tannarxi aniqlanadi.

5. Ekspert usuli - Ushbu usulda jami xarajatdan qo'shimcha mahsulotlar qiymati chegirilib, qolgan xarajat asrosiy va yondosh mahsulotlar o'rtasida oldindan belgilangan foizlar asosida taqsimlanib, mahsulot tannarxi aniqlanadi.

Respublika bo'yicha uzumchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida jami 77,2 ming gektar, shu jumladan, 24,6 ming gektar sanoatbop navli tokzorlar mavjud bo'lib, shundan ichki va tashqi bozorida xaridori bo'lgan vino mahsulotlari ishlab chiqarishga mos noyob navlar 14,7%ni tashkil etadi. Binobarin, soha mutahassislariga bu borada ham ko'plab ishlarni amalga oshirishlariga to'g'ri kelmoqda.

Xo'jalikda foydali belgilari bo'yicha uzum va uzum mahsulotlari yetishtirish tarkibi 27 ta xo'raki va 25 ta vinobop navlaridan tashkil topgan. Hozirgi vaqtda 20 foiz maydonga xo'raki uzum 65 foiz maydonga mayizbop va 15 foiz maydonga vinobop navlar ekilmoqda.

Qo'shrobot tumani fermer xo'jaliklarining uzumlikchilikda iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlilini 3.2.1-jadvalda ko'rib chiqamiz.

3.2.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki Qo'shrobot tumani fermer xo'jaliklarida uzum ishlab chiqarishda 2013 yil 2011 yilga nisbatan rentabellik darajasi 1,9 punktga kamaygan. Ushbu kamayish xo'jaliklarda uzum

3.2.1.-jadval

Qo'shrobot tumani fermer xo'jaliklari uzumlikchilikda iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili (2011-2013 yy.)*

№	Ko'rsatkichlar	Yillar			2013 yil 2011 yilga nisbatan o'zgarishi	
		2011	2012	2013	(+,-)	%
1.	Ekin maydoni, ga	590	590	590	0	100,0
2.	Yalpi xosil, s	67201	52923	45253	-21948	67,3
3.	Xosildorlik, s/ga	113,9	89,7	76,7	-37,2	67,3
4.	Yalpi mahsulot qiymati, mln.so'm	3025	3440	5205	2180	172,1
5.	Jami ishlab chiqarish xarajatlari, mln.so'm	2157	2521	3763	1606	174,5
6.	Mahsulotni sotishdan olingan foyda, mln.so'm	868	919	1442	574	166,1
7.	Rentabelligi, %	40,2	36,5	38,3	1,9 punktga kamaygan	

*Manba: Samarqand viloyat Qo'shrobot tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi 2011-2013- yillar ma'lumotlari

hosildorligining 37,2 s/ga yoki 32,7 foizga kamayishi yalpi hosilning 21948 s.ga yoki 32,7 foizga kamayishiga olib kelishi hisobiga va jami xarajatning 1606 mln so'mga yoki 74,5 foizga oshishi hisobiga yuz bergan. Ammo, xo'jaliklarda yalpi mahsulotning qiymati 2013 yil 2011 yilga nisbatan 2180 mln so'mga yoki 72,1 foizga oshishi ijobiy ta'sir ko'rsatgan holda foyda miqdori 574 mln so'mga yoki 66,1 foizga oshishini ko'rishimiz mumkin. Xo'jaliklarda 1 gektar uzum maydoni hisobiga to'g'ri keladigan xarajat, daromad va foyda tahlilini 3.2.2-jadvalda ko'rib chiqamiz.

3.2.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki xo'jaliklarda 1 gektar uzum maydoniga 2013 yil 2011 yilga nisbatan xarajatlari 2722,0 ming so'm yoki 74,5 foizga oshgan bo'lsa, daromad 3694,9 ming so'mga yoki 72,1 foizga oshgan. Natijada, 1 gektar uzum maydonidan olingan foyda miqdori daromadning oshishi hisobiga 972,9 ming so'mga yoki 66,1 foizga oshgan.

3.2.2.-jadval

Qo'shrobot tumani fermer xo'jaliklari uzumlikchilikda 1 gektar hisobiga qilingan xarajatlar tahlili (2011-2013 yy.)*

№	Ko'rsatkichlar	Yillar			2013 yil 2011 yilga nisbatan o'zgarishi	
		2011	2012	2013	(+,-)	%
1.	Daraomad, ming so'm	5127,1	5830,5	8822,0	3694,9	172,1
2.	Xarajatlar sarfi, ming so'm	3655,9	4272,9	6378,0	2722,0	174,5
3.	Foyda, ming so'm	1471,2	1557,6	2444,1	972,9	166,1
4.	Rentabelligi, %	40,2	36,5	38,3	1,9 punktga kamaygan	

*Manba: Samarqand viloyat Qo'shrobot tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi 2011-2013- yillar ma'lumotlari

Tuman xo'jaliklarida 1 s. uzum tannarxi, 1s. uzumni o'rtacha sotish bahosi va 1 s. uzumni sotishdan olgan foyda miqdori tahlilini 3.2.3-jadvalda ko'rib chiqamiz.

3.2.3.-jadval

Qo'shrobot tumani fermer xo'jaliklari 1 s. uzum tannarxi tahlili (2011-2013 yy.)*

№	Ko'rsatkichlar	Yillar			2013 yil 2011 yilga nisbatan o'zgarishi	
		2011	2012	2013	(+,-)	%
1.	Tannarxi, ming so'm	32,1	47,6	83,2	51,1	259,1
2.	O'rtacha sotish bahosi, ming so'm	45,0	65,0	115,0	70,0	255,5
3.	Sotishdan olingan foyda, ming so'm	12,9	17,4	31,9	18,9	246,7
4.	Rentabelligi, %	40,2	36,5	38,3	1,9 punktga kamaygan	

*Manba: Samarqand viloyat Qo'shrobot tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi 2011-2013- yillar ma'lumotlari

3.2.3.-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki tuman fermer xo'jaliklarida 1 s. uzum tannarxi 2013 yil 2011 yilga nisbatan 51,1 ming so'mga yoki 259,1 foizga oshishi foyda miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Natijada foyda miqdorining 18,9 ming so'mga yoki 246,7 foizga oshishi 1 s. uzumning o'rtacha sotish bahosining 70,0 ming so'mga yoki 255,5 foizga oshishi hisobiga yuz bergan.

3.4. Uzum tannarxining omilli tahlili

Ma'lumki, tuman fermer xo'jaliklarida uzum tannarxini pasaytirish muhim vazifalardan biri bo'lib, bu vazifani hal qilishda mavjud yer-suv, mehnat va moddiy resurslarni, ya'ni resurslar salohiyatini to'g'ri sarflash, ularni belgilangan me'yorlariga qat'iy rioya qilish, tejamkorlikni amalda keng qo'llash muhimdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jaliklar mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxi kalkulyasiyasini to'g'ri tashkil qilishning ahamiyati ham juda kattadir.

Fermer xo'jaliklarida mahsulot tannarxi - ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligining muxim omili va kursatkichi hisoblanadi. Xar qanday mahsulot birligining tannarxi ikki miqdor nisbatiga: ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot sifatiga bog'liq bo'ladi. Tannarx quyidagi hollarda pasayishi mumkin:

1. Agar mahsulot o'zgarmagani xolda, xarajat miqdori kamaysa.
2. Agar yalpi mahsulot miqdori kupayib, xarajatlar o'zgarmasa.
3. Agar yalpi mahsulotining usish sur'ati xarajatlar usish sur'atidan yukori bulsa.

Uzum tannarxini moddiy-pul resurslaridan oqilona foydalanish hisobiga ham pasaytirish lozim. Shu maqsadda ularning tashkil topish xususiyatlarini tahlil qilamiz.

Tannarx o'z navbatida jami mahsulot tannarxi, mahsulot birligi tannarxi va 1 so'mlik yalpi mahsulotga to'g'ri keladigan xarajatlar ko'rsatkichlariga bo'linadi. Ushbu ko'rsatkichlardan birinchisini tahlil etish tartibi yuqorida bayon qilindi. Endi bir birlik mahsulot tannarxini ko'rib chiqamiz.

Mahsulot birligining tannarxini tahlilini amalga oshirish uchun solishtirish va zanjirli almashtirish usullaridan foydalanamiz.

Hisobot davridagi bir birlik mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini bazis davridagi (yeki rejalashtirilgan) tannarxiga solishtirib, mutlok va nisbiy o'zgarishlari aniklanadi. So'ngra «zanjirli almashtirish» usuli orqali omilli tahlil

etilib, omillarning ijobiy va salbiy doiralari aniklanib, tannarxni pasaytirish imkoniyatlari ko'rsatiladi.

1 tonna mahsulot tannarxining o'zgarishi bevosita ekstensiv va intensiv omillar ta'siri ostida sodir buladi. Bu omillar quyidagilardir:

1. 1 gektar ekin maydoni hisobiga qilingan ishlab chiqarish xarajatlari hajmining o'zgarishi.

2. 1 gektar ekin maydonidan olingan hosil miqdorining (ya'ni hosildorlik darajasining) o'zgarishi.

Tannarxning o'zgarishiga omillarning ta'sirini aniqlaganga qadar 1s mahsulotning shartli tannarxini aniqlab olish zarur. Shartli tannarxni (Zsh) aniqlash uchun hisobot davridagi (yilidagi) 1 gektar ekin maydoni hisobiga qilingan xarajatlar hajmini (IX1) bazis davridagi (yilidagi) hosildorlik darajasiga (Xo) bo'lish kerak.

$$Zsh = \frac{IX_1}{X_0}$$

1 gektar ekin maydoni hisobiga qilingan xarajatlarni hajmini aniklash uchun u yoki bu ekin turi uchun qilingan jami xarajatlar hajmini jami ekin maydoniga bo'lish kerak.

Shartli tannarx aniqlangandan keyin tannarxning o'zgarishiga omillarning ta'sirini «zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib, quyidagi tartibda aniqlash kerak.

1 s mahsulot tannarxining o'zgarishiga ekstensiv omilning, ya'ni 1 ga ekin maydoni hisobiga qilingan xarajat hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun 1 s mahsulotning shartli tannarxidan uning bazis davridagi tannarxini chegirish kerak.

1 s mahsulot tannarxining o'zgarishiga intensiv omilning, ya'ni hosildorlik darajasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun 1 tonna mahsulotning hisobot yilidagi tannarxidan shartli tannarxni chegirish kerak.

3.3.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Qo'shrobot tumani fermer xo'jaliklarida uzum ishlab chiqarishda 2013 yil 2011 yilga nisbatan 1 s. uzum tannarxi 51,1 ming so'mga oshgan bulib bu o'zgarish 1 ga yerga qilingan

xarajatning 2722,0 ming so'mga oshgani tannarxning 23,9 so'mga oshishiga sabab bo'lgan

3.3.1-jadval

Qo'shrobot tumani fermer xo'jaliklarida uzum tannarxining omilli tahlili*

№	Ko'rsatkichlar	2011 yil	2013 yildagi 1 ga yer xarajati va 2011 yildagi hosildorlik bo'yicha	2013 yil	O'zgarishi, (+/-)	Sh.j.	
						1 gektar yer xarajati hisobiga	hosildorlik hisobiga
1.	1 gektar ekin maydoni hisobiga qilingan xarajat, ming so'm	3655,9	6378,0	6378,0	2722,0	x	x
2.	1 ga ekin maydonidan olingan hosil, s/ga	113,9	113,9	76,7	-37,2	x	x
3.	1 s uzum tannarxi, ming so'm	32,1	56,0	83,2	51,1	23,9	27,2

*Manba: Qo'shrobot tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari bo'lsa, hosildorlikning 37,2 sentnerga kamayishi tannarxni 27,2 ming so'mga oshishiga sabab bo'lgan.

Xo'jaliklarda mahsulot tannarxining oshishiga ikki omil ham salbiy ta'sir ko'rsatgan. Tuman fermer xo'jaliklari uzum yetishtirishda uning hosildorligini oshirishga va tannarxining pasaytirishga alohida e'tibor berish lozim.

4. UZUMCHILIKDA TANNARXNI PASAYTIRISH IMKONIYATLARI

4.1. Uzunmudavlat tannarxni pasaytirish imkoniyatlari va ulardan foydalanish

Mahsulot tannarxi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligining muxim omili va bir vaqtning o'zida ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi. Har qanday mahsulot birligining tannarxi ikki miqdor nisbatiga: ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot sifatiga bog'liq bo'ladi. Tannarx quyidagi xollarda pasayish mumkin.

1. Agar mahsulot o'zgarmagani holda, xarajat miqdori kamaysa.
2. Agar yalpi mahsulot miqdori ko'payib, xarajatlari o'zgarmasa.
3. Agar yalpi mahsulotning o'sish sur'ati xarajatlari o'sish sur'atidan ilgari ketsa.

Mahsulot tannarxi omillari qishloq xo'jaligida turli-tumandir. Ularni 3guruhga bo'lish mumkin.

1-guruh:

- a) xodimlarning moddiy manfaatdorligi.
- b) ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va konsentratsiyalash.
- d) ishlab chiqarish texnologiyasini qisqa vaqtda va sifatli bajarish.

2-guruh:

- a) ishlab chiqarishning mexnat sig'imi.
- b) ishlab chiqarishning yer sig'imi.
- d) ishlab chiqarishning fond sig'imi.
- e) ishlab chiqarishning material sig'imi.

3-guruh:

- a) Qishloq xo'jaligi ekinlari xosildorligi va hayvonlar xosildorligi .
- b) ekin maydonlari va poda strukturasi.
- d) mahsulotni saqlash usullari.

Mahsulot tannarxini taxlil qilishda unga sarflanadigan jonli mexnatning harakteri, miqdori, samaradorligi xisobiga olinishi kerak. Xozirgi vaqtda 1 sentner mahsulot yetishtirishda buyumlangan mexnatning xissasi kamayish o'rniga ortib

bormoqda. Bunga sabab shlab chiqarish jarayonida texnik vositalardan yetarli foydalanilmasligidir.

Mahsulot tannarxini pasaytirish har qanday sharoitda va har qanday ishlab chiqarish uchun qonuniy kuchga ega bo'lmog'i shart. Aks xolda tovar ishlab chiqarish xajmini ko'paytirish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin emas.

Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlari xajmini kamaytirish va mahsulot tannarxi darajasini pasaytirish shlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi asosiy omillardan bo'lib xisoblanadi. Shuning uchun ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar xajmi dinamikasini xamda o'simlikchilik ya'ni uzumchilik maxsilotlari tannarxi darajasini tarkibi va strukturasi uzluksiz ravishda taxlil etib turish muhim ahamyatga egadir.

Iqtisodiyotda mahsulot tannarxini pasaytirishning asosiy yo'llaridan biri bu mexnat unumdorligini oshirish hisoblanadi.

Shunday ekan mehnat unumdorligining o'sishi mahsulot birligini yetishtirish uchun qilinayotgan mexnat miqdorining kamayishida ya'ni kam miqdorda meznat sarf qilib, ko'proq mahsulot ishlab chiqarishda namoyon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida ma'lum miqdorda mahsulot ishlab chiqarish uchun jonli va buyumlangan mexnatni tejash imkoniyatini yaratadi.

Uzimchilikda xam boshqa tarmoqlar kabi mexnat unumdorligini o'sib borish qonunlariga amal qiladi. Mexnat unumdorligining o'sishi mahsulot birligi ishlab chiqarish uchun sarf qilingan mexnat miqdorining kamayishiga yoki boshqacha qilib aytganda bir xil miqdorda mexnat sarf qilib , ko'proq mahsulot ishlab chiqarishda namoyon bo'ladi. Umuman mexnat unumdorligi iqtisodiyotda birinchidan, taraqqiyot mezoni shaklida, ikkinchidan, u moddiy ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish va takomillashtirishning hal qiluvchi sharti sifatida namoyon bo'ladi. Shunday ekan xar bir xo'jalikda mehnat unumdorligni oshirish rezervlari, ularning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan xolda belgilanadi. Bunday ichki imkoniyatlar xo'jalikda:

Birinchidan, xo'jalikdagi xar qaysi ish joyiga samarali rezervlar toppish;

Ikkinchidan, uzum yetishtirish bo'yicha mutaxassislar tayyorlash, ularning ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi moddiy maanfatdorligini oshirish, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish, mehnat intizomini mustaxkamlash kabi qator shartlardan iborat. Biz taxlil qilib o'rganayotgan Qo'shrobd tumani fermerlar, ya'ni 2012 yilda 683 kishi\kun, 2013 yilda 702,1 kishi \kun mehnatga sarf qilingan. Bunda ko'rinib turibdiki uzimchilikda mahsulotni yetishtirish uchun qilingan mehnat sarflari ortib bormoqda. Bu esa fermer xo'jaliklarida uzumchilikda mehnat unumdorligining pasayib borayotganidan dalolat beradi.

Xo'jalikda mehnat unumdorligining pasayishi esa o'z navbatida uzum tannarxining ko'tarilib ketishiga sabab bo'lmoqda. Fermer xo'jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish uchun ekinlar xosildorligini oshirish, kamroq xarajat qilib ko'proq mahsulot yetishtirishni amalga oshirish lozim. Shundagina mehnat unumdorligini va samaradorligini oshirish xamda dehqonlarning turmish sharoitini yaxshilash imkonini beradi va yaxshi yashashga zamin yaratadi.

Korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash ishlarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining roli tobora ortib borayotganini alohida ta'kidlash kerak.

Vazirlar Mahkamasi strategik ahamiyatga molik loyihalarning amalga oshirilishini alohida nazoratga olishi, loyiha-smeta hujjatlarining puxta ishlanishini, tanlov savdolarining o'z vaqtida o'tkazilishini, zarur asbob-uskunalarning yetkazib berilishi bo'yicha shartnomalar tuzilishi hamda qurilish-montaj ishlarining belgilangan muddatlarda bajarilishini ta'minlashi zarur.

Hukumatning chorak yakunlariga bag'ishlangan yig'ilishlarida qabul qilingan Birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturini va modernizasiyalash bo'yicha tarmoq dasturlari hamda loyihalarni amalga oshirish bo'yicha tasdiqlangan tarmoq jadvallari ijrosi ta'minlanishini ko'rib chiqish va ularning bajarilishi uchun o'z vaqtida tegishli choralar ko'rish tartibini joriy etish darkor.

O'tgan yili protokol bilan belgilangan topshiriqqa binoan mamlakatimizning barcha yirik korxonalari va ishlab chiqarish tarmoqlarida o'tkazilgan texnik audit

natijasida 37 mingga yaqin asbob-uskuna va texnologiyalarning jahon miqyosida sinovdan o'tgan, zamonaviy turlariga almashtirilishi lozimligi aniqlandi.

Vazirlar Mahkamasi ushbu audit natijalari asosida bir oy muddatda moddiy va ma'naviy jihatdan yeskirgan asbob-uskunalarni yangilash bo'yicha loyihalarning amalga oshirilishi yuzasidan, ularni moliyalashning aniq manbalariga alohida e'tibor qaratgan holda, tarmoq jadvallarini tasdiqlashi zarur.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizning samarasi haqida so'z yuritar ekanmiz, shuni tan olishimiz kerakki, bu yo'nalishda eskidan qolgan va hali-beri ro'y berib kelayotgan oqsoqlik holatlari borligi, birinchi navbatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning material va energiya sarfi yuqori darajada saqlanib qolayotgani ayon bo'ladi.

Avvalo, biz tabiat tomonidan berilgan noyob, qayta tiklanmaydigan zahiralarni bo'lmish neft, gaz kondensati, tabiiy gaz va boshqa yoqilg'i-energetika resurslaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanishni hamon o'rganganimiz yo'q. Bu resurslarning katta qismidan ko'proq yoqilg'i sifatida foydalanyapmiz, xolos.

Muqobil energiya resurslarini izlash va joriy yetish ishlari talab darajasida emas. Umuman, ushbu sohada zudlik bilan hal qilinishi lozim bo'lgan ko'plab muammolar to'planib qolganini afsus bilan qayd etish kerak.

Mahsulot tannarxiga kiruvchi, barcha ishlab chiqarish xarajatlari turli belgilari bo'yicha guruxlanadi:

1. Ishlab chiqarish jarayonidagi roli bo'yicha quyidagilarga bo'linadi:

1.1. Asosiy xarajatlar: uzum ishlab chiqarishda ish haqi, o'g'it qiymati, asosiy vositalar uchun xarajatlar, uzum ishlab chiqarishda mexanizatorlar oyligi, urug' qiymati, mashinadan foydalanish harajayi va boshqalar.

1.2. Qo'simcha ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqaruv harajatlari; korxonada ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarish xarajatlari kiradi.

2. Ishlab chiqarilgan mahsulotga olib borilishi va tannarxga qo'shilish usuli bo'yicha quyidagilarga bo'linadi:

2.1. Bevosita xarajatlar. Bu tannarxga to'g'ridan to'g'ri kiruvchi xarajatlardir. Ular aloxida mahsulot ishlab chiqarishga sarflanadi.

2.2. Bilvosita xarajatlar. Shartli ravishda proporsional taqsimlanadigan xarajatlar. Mahsulot tarkibiga qo'shilishi bilvosita amalga oshadi.

3. Tarkibi bo'yicha quyidagilarga bo'linadi:

3.1. Oddiy xarajatlar. Bu bir xil elementlardan (urug'lik, yem-hashak qiymati, ish haqi va boshqalar) tashkil topgan xarajatlardir.

3.2. Kompleks xarajatlar. Bu xar hil elementlardan tashkil topgan xarajatlardir.

4. Ishlab chiqarish xajmiga bog'liqlik darajasi bo'yicha quyidagilarga bo'linadi.

4.1. Shartli o'zgaruvchi. Ishlab chiqarishning hajmining o'zgarishiga qarab, proporsional o'zgaradigan xarajatlar (ekin maydonining ko'payishi, urug'lik, ish haqi harajatlarini oshiradi).

4.2. Shartli doimiy. Ishlab chiqarish xajmi o'zgargani bilan o'zgarmaydigan xarajatlar (binilar amartizatsiyasi, ma'muriy boshqaruv persanali).

5. Ishlab chiqarishda qatnashish vaqti bo'yicha xarajatlar quyidagilarga bo'linadi.

5.1. Joriy yil xarajatlari.

5.2. Kelgusi davr xarajatlari.

Xarajatlarning iqtisodiy elementlari quyidagilar xisoblanadi:

1. Ish haqi xarajatlari sotsial sug'urta bilan.

2. Material xarajatlar (urug'lik, YoMM, o'g'itlar, zaxira qismlar, capital va joriy ta'minlash).

3. Asosiy vositalar amartizatsiyasi.

4. Sug'urta to'lovlari.

5. Boshqa xarajatlar.

1. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga bevosita mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish bilan shartlangan xarajatlar kiritiladi. Ularga quyidagilar tegishli bo'ladi: bilvosita

va bilvosita moddiy xarajatlar, bevosita va bilvosita mexnat xarajatlari, boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ustama harajatlar.

Mahsulot (ish, xizmatlar) ning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi harajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi elementlar bilan guruxlarga ajratiladi:

1.1 Ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy xarajatlar.

1.2 Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mexnatga haq to'lash harajatlari.

1.3 Ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

1.4 Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi.

1.5 Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar.

2. Davr xarajatlari deganda bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar va sarflar tushuniladi. Boshqaruv harajatlari, mahsulotni sotish harajatlari va umumxo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar. Davr xarajatlariga quyidagi moddalar kiradi:

3. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarga quyidagilar kiradi:

4. Favqulotda zararlar – bu xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning odatdagi faoliyatidan chetga chiquvchi hodisalar yoki operatsiyalar natijasida vujudga keladigan va ro'y berishi kutilmagan, odatdan tashqari xarajatlar moddalaridir. Bunga favqulotda moddalar va davr xarajatlari tarkibida aks ettirishi kerak bo'lgan o'tgan davr moddalari kirmaydi.

Qo'shrabot tuman fermer xo'jaliklarida g'alla tannarxining tarkibiy o'zgarishi xarajat turlari, shular bo'yicha o'zgarishi quyidagi 4.1.1- jadvalda keltirilgan.

4.1.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rini turibdiki tuman fermer xo'jaliklarida uzum ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida 2013 yil 2011 yilga nisbatan to'g'ri mehnat sarfi 607,4 mln so'mga, mikro va makro o'g'itlar 355,6 mln so'mga, asosiy vositalarning eskirishi 16,6 mln so'mga, ish va xizmatlar 351,4 mln so'mga,

4.1.1-jadval

Tuman fermer xo`jaliklarida uzum tannarxining tarkibiy o`zgarishi (2011-2013 yy.)*

Xarajat turlari	Yillar				O`zgarishi 2013 yil 2012 yilga nisbatan o`zgarishi	
	2011		2013		+,-	%
	Mln so`m	%	Mln so`m	%		
To`g`ri mehnat sarfi	724,8	33,6	1332,1	35,4	607,4	1,8
Mikro va makro o`g`itlar	427,1	19,8	782,7	20,8	355,6	1
Amortizatsiya	32,4	1,5	48,9	1,3	16,6	-0,2
Ish va xizmatlar	416,3	19,3	767,7	20,4	351,4	1,1
Yoqilg`I moylash materiallari	360,2	16,7	534,3	14,2	174,1	-2,5
Umumiy ishlab chiqarish xarajatlari	62,6	2,9	45,2	1,2	-17,4	-1,7
Boshqa xarajatlar	133,7	6,2	252,1	6,7	118,4	0,5
Jami	2157	100	3763	100	1606,0	0

*Manba:Tuman fermerlar kengashining 2012-2013 yil hisobot ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

YoMMLari 174,1 mln so`mga va boshqa xarajatlar 118,4 mln so`mga oshgan bo`lsa, umumiy ishlab chiqarish xarajatlari 17,4 mln so`mga kamaygan.

Uzum ishlab chiqarishda xarajatlarning bunday oshib ketishi, tannarxning ortishiga olib kelmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, ushbu xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlari izlab topilsagina uzum xarajatlarining tannarxini pasaytirish imkoniyati topiladi va uzum yetishtirish samaradorligi ham yuqori bo`lar edi.

4.2. Uzumchilikda hosildorlikni oshirish imkoniyatlari

Uzumchilikda mahsulot tannarxini pasaytirishning asosiy yo'llaridan biri bu xosildorlikni oshirish xisoblanadi. Hosildorlikning oshishi tarmoqda ma'lum miqdorda qilinga xarajatlar evaziga yani mahsulot ko'payishiga olib keladi. Shunday ekan biz tahlil qilib o'rganayotgan Qo'shrobd tumani fermer xo'jaliklarida uzum xosildorligini oshirish yo'llarini ko'rib chiqamiz.

Qo'shrobd tumani fermer xo'jaliklari uzumchiligida hosildorligini oshirish bir qancha omillarga bog'liq bo'lib, bular agrotexnik hamda iqtisodiy xarakterdagi omillardan iborat. Xo'jaliklardagi agrotexnik xarakterdagi omillarga ma'lum vaqt hosil berib, keyinchalik o'z hosildorligini pasaytigan eski navlarning o'rniga yangi hosildor yosh navlarni o'qazishni to'g'ri joriy etish, yerga to'ri ishlov berish, mineral va organik o'g'itlarni agrotexnika qoidalari asosida solish, o'simliklarni ximoya qilish vositalaridan to'g'ri foydalanish va boshqalardan iborat.

Tumani uzumchiligidagi iqtisodiy xarakterdagi omillarga mehnatni tashkil qilishning ratsional formalaridan foydalanish, ekin maydonlarining aptimal strukturasi belgilash va boshqalardan iborat. Alohida takidlash lozimki, tumani fermer xo'jaliklarida uzum yalpi xosilini ekin maydonlarini kengaytirish xisobiga ko'paytirishning iloji yo'q. Shuning uchun faqatgina intensiv asosda ko'paytirish mumkin.

Fermer xo'jaliklarda xosildorlikni oshirishning asosiy yo'llaridan biri bu ilmiy asoslangan almashlab ekishni joriy qilish hisoblanadi. Uzumchilik ilmiy tadqiqot instituti olimlarining bergan ma'lumotlariga ko'ra faqatgina to'g'ri, ilmiy asoslangan almashlab ekish g'alla hosildorligini 30-40 foizga oshirish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga almashlab ekish g'alla o'simligini xarhil kasalliklarga chalinishini va boshqa havfli kasalliklarni batamom yo'qotib yuboradi. Shuning uchun xam bizning fikrimizcha xo'jalikda ilmiy asoslangan almashlab ekishni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Fermer xo'jaliklaridagi uzum mahsulotlari tannarxining ichki rezervlarini batafsil o'rganish maqsadida biz mavjud ma'lumotdan foydalanib tannarxni taxlil etdik. Bunda biz tumani bo'yicha uzumchilik ekin turi bo'yicha tannarxni oxirgi

3yil (2011-2013yil) dagi o'garishni o'rgandik. Ushbu o'zgarish mahsulot turi bo'yicha quyidagi jadvalda keltirikgan.

4.2.1-jadval

Qo'shrobd tuman fermer xo'jaliklarida ekinlar hosildorligi

(s/ga, 2011-2013 yy.)*

Mahsulot turi	Yillar			2013 yil 2011 yilga nisbatan o'zgarishi	
	2011	2012	2013	(+;-)	%
Don		4,2	7,9	7,9	100
Sabzavot	131,1	732,0	153,8	22,7	117,3
Kartoshka	285,6	227,7	191,1	-94,5	67,0
Poliz	258,0	208,0	65,0	-193,0	25,2
Meva	81,1	86,9	145,0	64,0	179,0
Uzum	113,9	89,7	76,7	-37,2	67,3

*Manba: Qo'shrobd tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

4.2.1-jadvalda xo'jalikning ekinlar hosildorligini tahlil qildik. Bunda 2013yilda ko'pgina ekinlar hosildorligi oshgan. Masalan don ekinlari hosildorligi 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 7,9sentnerga oshgan. Bunday holat hozirgi kunda g'alla ekinlari e'tiborning oshganligiga bog'liq. Bundan tashqari tuman fermer xo'jaliklari o'z axolisini va viloyat, qolaversa respublikamiz aholisini sabzavot, kartoshka, poliz va uzum halqimiz sevib iste'mol qiladigan mahsulotlar bilan ta'minlab turadi.

Shu o'rinda sabzavot ekinlarinig hosildorligi 2011yilda 131,1sentner, 2012 yilda 731,0 sentner, 2013yilda 153,8 sentnerga yoki hisobot yil bazis yilga nisbatan 22,7 ga yoki 117,3 foizga ko'paygan. Kartoshka 2011 yilda 285,6 sentnerni, 2012 yilda 227,7 sentnerni, 2013yil, 2011yilga nisbatan -94,5 sentner yoki 67,0 foizga kamaygan. Poliz ekinlari esa 2011yilda 258 sentner, 2012 yilda 208 sentner, 2013 yilda 65 sentner bo'lgan. 2013 yilga nisbatan 2011 yilda -193,0 sentner yoki 25,2 foizgacam yetishtirilgan.

Meva 2011yilda 81,1 sentner, 2012 yilda 86,9 sentner, 2013 yilda esa 145,0 sentner bo'lgan. 2013 yil nisbatan 2011 yilda 64,0 sentner yoki 179,0 foizga ko'p yetishtirishga erishilgan.

Uzum mahsulotlari 2011 yilda 113,9 sentner, 2012 yilda 89,7 sentner, 2013 yilda 76,7 sentner, 2013 yil 2011 yilga nisbatan -37,2 sentner yoki 67,3 foizga kamaygan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 13 martdagi «Respublikada 2013–2015 yillar davomida uzumchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori mamlakatimizda uzumchilikni yanada rivojlantirish, tokzorlar maydonlarini kengaytirish, uzumchilikning ilmiy bazasini mustahkamlash, yangi istiqbolli va serhosil navlarni joriy etish, shuningdek, uzumni qayta ishlash hajmini kengaytirish va eksport salohiyatini ko'paytirish borasidagi vazifalar belgilab berilganligi bilan ahamiyatlidir. Mazkur hujjatga asosan respublika bo'yicha 2015 yilga qadar 22,5 ming gektar yangi tokzorlar barpo etish hamda 15,7 ming gektar yaroqsiz tokzorlarni qayta rekonstruksiya qilinadi.

Jumladan, joriy yilda respublikamizda tok ko'chatlari va mevali daraxtlar ko'p ekildi. Yangi ekilgan ko'chatlarga alohida e'tibor qaratib, parvarish ishlarini o'z vaqtida olib borish talab etiladi.

Aprel oyida harorat keskin ko'tarilib isib ketganligi bois, tuproqda namlik me'yorda bo'lmadi. Shu bois may oyida bog'larni sug'orish, qator oralarini kultivasiya qilish, daraxtlar orasini yumshatish, ildiz bachkilarini qirqib tashlash ishlari olib boriladi. Yangi bog'larni tuproq namligiga qarab 1–2 marta sug'orib, har sug'orishdan so'ng qator oralarini 10–12 sm chuqurlikda yumshatish maqsadga muvofiq.

May oyining ikkinchi yarmida hosilli bog'larda erta bahorda yetarli miqdorda azotli o'g'it solinmagan bo'lsa, 50–60 kg azotli, 65–70 kg fosforli hamda 40 kg kaliyli o'g'it solinib, sug'oriladi.

Yosh uzumzorlarda o'suv davri davomida may oxiri, iyun boshida uchinchi barg ustidagi hali yog'ochlanmagan novdalarning uchi chilpib turiladi. Bu shox-shabbaning shakllanishi va tezroq hosilga kirishiga yordam beradi.

Tokzorlarda yosh toklar 2 marta sug'oriladi. Shuningdek, qator oralarini kultivasiya qilish, nihollar orasini yumshatish zarur. Novdalar barcha uzunligi bo'yicha bir tekis rivojlanishi uchun simbag'azlarga gorizontaal yoki sal qiya qilib bog'lanishi kerak.

Zanglar yo'g'onlashganda bog'ichlar uzilib ketmasligi va novdalar simga ishqalanmasligi uchun ular pishiq bo'lishi kerak. Buning uchun bog'ich simbag'azlarga sakkiz raqami shaklida bog'lanadi.

Novdalar 50–60 sm uzunlikka yetganda birinchi xomtok o'tkaziladi, yosh novdalar ikkinchi, ba'zan uchinchi simga bog'lanadi. Ko'k novdaning o'sish kuchi va joylashishiga qarab ikkinchi marotaba uchinchi yoki to'rtinchi simga bog'lanadi.

Tokda to'pgullar paydo bo'lishi bilan xomtok boshlanadi. Novdada to'pgul o'rnida jingalaklarning borligi uning hosil qilmasligidan dalolatdir. Hosil qilmasligi aniq bo'lgan novdalarni erta xomtok qilish qo'shimcha miqdorda novdalar, jumladan, hosil qiladigan novdalarning rivojlanishiga yordam beradi. Xomtokni erta gullaydigan uzum navlaridan boshlash zarur.

Tokning ko'p yillik zanglaridan o'sib chiqqan bachki novdalar birinchi navbatda olib tashlanadi. Bunda tokni shakllantirish va zangning o'rnini bosish uchun kerak bo'ladigan novdalar qoldiriladi. Agar tokda zararlanish natijasida yoki boshqa sabablarga ko'ra, kam novda rivojlangan bo'lsa ham, bachki novdalarning bir qismi oziqlanish yuzasini oshirish uchun qoldiriladi.

Har bir nav uchun tupdagi hosildor va hosil qilmaydigan novdalar nisbati olinadigan hosil va novdaning o'sish kuchini, shuningdek, ekologik va agrotexnik sharoitini hisobga olgan holda belgilanadi. Masalan, sug'oriladigan yerlarda yetishtiriladigan kishmishbop navlarda har ikkita hosildor novdaga bir-ikkita hosilsiz novda qoldirish kerak.

Lalmi tokzorlarda qish-bahor davridagi yog'ingarchilikni hisobga olgan holda xomtok qilinadi. Bir vaqtning o'zida olinadigan hosil miqdori normallashtiriladi va har bir hosildor novdaga bitta hosil qilmaydigan novda qoldiriladi. Yog'ingarchilik kam bo'lgan yillarda tokning juda kuchsizlanib

ketishining oldini olish maqsadida, to'pgulli novdalarning uchdan bir qismini olib tashlash kerak.

Hosilli tokzorlarda ham fosforli va kaliyli o'g'itlar bilan oziqlantirishda asosiy me'yorning yarmidan ko'prog'i beriladi: ammofos 125 kg bo'lsa, fosforli o'g'itlar ko'proq, ya'ni 90 kg, kaliyli o'g'itlar 40–50 kg.

Fosfor va kaliyli o'g'itlar nisbatan ko'proq berilishi tok novdalarining to'liq yetilishi, kasalliklarga chidamliligini oshirish va mavsum oxirida novdalarning pishishi hamda kelgusi yil hosiliga puxta zamin yaratiladi. Mabodo mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish imkoni bo'lmasa, mahalliy o'g'itlardan foydalanish kerak. Bunda har bir gektar bog' va tokzorlarga sug'orish bilan birga 5–6 t go'ng oqiziladi.

Kul (oidium) kasalligining oldini olish maqsadida, toklar gullagunga qadar 1–2 marta tuyilgan oltingugurt changlatiladi (1 gektarga 20–25 kg sarfi bilan). Bunda Topaz (100 l suvga 50 g) yoki Vektra (30 g) preparatlarini ham purkash mumkin.

May oyining ikkinchi yarmida olma qurti va nok shira burgasiga qarshi purkash ishlari takrorlanadi. Bunda yuqorida bayon etilgan preparatlar qo'llaniladi.

Behizorlarda monilioz kasalligiga qarshi 1 foizli Bordo suyuqligi bilan har 8–10 kunda purkash takrorlanadi. Yuqoridagi agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida sifatli o'tkazish bilan tokzorlarimizdan yuqori va sifatli hosil olishga erishiladi.

4.3. Uzum yetishtirish va uni saqlashning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari

Uzumchilik – mamlakatimiz qishloq xo'jaligining muhim daromadli tarmog'i. Bizdagi qulay tabiiy sharoit xilma-xil uzum nav-lari yetishtirishga imkon beradi. U qimmatbaho o'simlik. Mevasi juda mazali va foydali. Tarkibida 15-30 % shakar, asosan glyukoza, tupida so'litilsa 40-50 % gacha, organik kislotalar, pektin, oshlovchi, xushbo'y hidli va bo'yoq moddalar, o'simlik yelimi, fermentlar, A, V, S vitaminlar, mineral tuzlar bo'lib, davolash ahamiyati alohida.

Oziq-ovqat, vinolar, shampan, konyaklar, murabbo, kompot, marinad, shinni, asal to'planadi. Mayiz, kishmish qilinadi.

Tokning qimmatli ekinligi yana shundaki, u tez (2-3 yilda) hosilga kirib, uzoq (80-100 yilgacha) yashaydi. Ildizi baquvvat, chuqur joylashgan, shuning uchun qurg'oqchilikka chidamli, meliorativ ahamiyati kata, qishloq xo'jaligiga kam yaroqli yerlarda o'stiriladi.

Tok eng qadimgi gulli o'simliklarga kirib, oilasi Vitaceae, avlodi Vitis, ekiladigan turi V. vinifera (Yevropa-Osiyo turi). Dunyo bo'yicha 10 mln, Hamdo'stlik mamlakatlarida 1 mln, O'zbekistonda 217000 gektar maydonni egallab, respublikamizda 200-300, hatto 1000 gektargacha tokzorga ega xo'jaliklar mavjud.

Tok liana o'simligi (chirmashib o'suvchi) bo'lib, yer ostki (ildiz sistemasi) va yer ustki qism (zang)dan iborat. Uning vegetativ va generativ organlari bo'ladi. Vegetativ organlariga: ildiz, zang, barglar, generativ organlariga to'pgul, gullar, shingil, g'ujum va urug'lar kiradi.

Tok tanasi har xil yoshdagi novdalardan iborat.

Ko'p yillik novdalar tokni asosini tashkil etadi. U zang yoki kunda deyiladi. Unda 1, 2 yillik 3, 4 yillik novdalar joylashib, 1 yilliklar hosil novdalardir.

Tokning yillik rivojlanishi 6 ta fazadan: 1. Shira harakati; 2. Kurtaklarning yozilishi va novdalarning o'sishi; 3. Gullash; 4. G'ujumlarning o'sishi; 5. G'ujumlarning pishishi; 6. Novdalarning pishishidan iborat.

Tok o'simligi 8-9° da shira harakati boshlanib, 10° da kurtak bo'rtadi, 11-12° da yoziladi, 25-30° qulay haroratdir. 40° zararali. 3-5° sovuq barg-mevalarni zararlaydi.

Oktyabr-noyabrda 8-12° sovuq ko'milmagan tok kurtak va novdalarini zararlaydi. Qishda novdalar 10-22° sovuqdan past bo'lsa zararlanadi. Harorat 17° dan pasaysa ko'miladi.

To'pgullari 0-0,5° dan zararlanadi.

Namlik 450 mm dan oshsa sug'orilmaydi.

Tok navlari botanik, biologik, xo'jalik belgi-xususiyatlariga qarab 3 guruhga bo'linadi:

1. Xo'raki navlar
2. Mayizbop navlar
3. Vinobop navlar

Tok asosan qalamchalaridan ko'paytiriladi. Qalamchalar xo'jalik ahamiyatiga ega uzumlardan yoki maxsus tokzorlardan tayyorlanadi. Uzunligi $l = 50-60$, diametri $d = 5-15$ mm, bo'g'im oraliqlari 6-12 sm qalamchalar olinadi. Bular navga xos, sog'lom, qarab ko'rilganda zararlanmagan, yaxshi pishgan bo'lishi shart. Qalamchalar kuzda va bahorda tayyorlanadi.

Tokzor ko'p yillar uchun barpo etiladi. Uni hosildorligi, uzoq yashashi va daromad berishi ko'p jihatdan uni to'g'ri tashkil etishga bog'liq. Tashkil etishdagi xato bir necha yildan so'ng sezilib, uni tuzatib bo'lmaydi yoki qiyin tuzatiladi.

Shuning uchun tokzor qat'iy reja asosida barpo etiladi. Unda vazifalar, joy tuproq-iqlim ta'rifi, tok biologiyasi, tashkiliy-xo'jalik sharoitlari hisobga olinadi. Bundan tashqari ko'chat o'tkazishdan oldin navlarni tanlash, joylashtirish, yerni tayyorlash, ko'chat o'tkazish, parvarishlash ham hisobga olinadi.

1. Joy tanlash. 2-2,5 m tuproq qatlami, sizot suvlar sathi 2,5-3,0 m bo'lishi shart.
2. Assortiment tanlash. 27 ta xo'raki, kishmish, 25 vinobop navlar rayonlashtirilgan.

Maydonning 20 % xo'raki, 65 % i kishmish, 15 % i vinobop nav-lar bilan band.

Assortiment tanlashda funksional urg'ochi gulli navlar boshqa navlardan changlanishini unutmash lozim.

Bularning 1-2 qatoridan so'ng 1 qator changlovchi navlar ekiladi.

Charos, nimrang, kattaqo'rg'oni funksional urg'ochi gulli. Bular uchun oq, qora kishmishlar yaxshi changlovchi hisoblanadi.

Tok o'tkazilgandan so'ng ularni yaxshi tutib ketishini, o'sishini, ularning hosilga tez kirishini ta'minlash lozim. Shu maqsadda o'sayotgan novdalar qoziqlarga bog'lab qo'yiladi, tokzor tup-roq'i doimo yumshoq, begona o'tlardan toza bo'lishi lozim. Tok o'tkazilgan yili yosh tokzor 2 tomonlama ishlanadi. Kelgusi yil 3-4 kultivasiya, 2-3 chopiq qilinadi. 1, 2 yillar yosh tokzor orasiga ertagi sabzavot, kartoshka va poliz ekinlarini ekish mumkin.

Yosh tokzorlar 8-10 marta, shag'alli yerlarda 15-18 martagacha sug'oriladi.

Ko'chatlar o'tkazilgandan so'ng 1-yili ularda 4-5 ta baquvvat novda rivojlantiriladi, qolgan novdalar kesib tashlanadi.

Tok tupida 3-yili 3-5 ta zang hosil bo'ladi, ularning har birida 100-150 ta kurtagi bo'lgan 2-3 ta hosil novdalari paydo bo'ladi shu yilning o'zida gektaridan 100-150 s hosil beradi.

Shuning uchun yosh tokzorlar 3-yildan boshlab hosillik tokzorlardek parvarish qilina boshlaydi.

Yerni ishlash: Kuzda va bahorda qator oralarini ishlashni, chizellashni kultivasiyani, ag'darmasdan haydashni, tuplar atrofini chopishni, yumshatishni o'z ichiga oladi.

Sug'orish: Hosilli tok o'suv davrida 4-6 marta, shag'alli yerlarda 8-10 marta, sizot suvlari yuza yerlarda 2-3 marta sug'oriladi.

O'stiruvchi moddalardan foydalanish: To'pgulga 1 l suvga 100 mg (0,1 g) gibberillin aralastirib botirilsa, hosil 40-50 % gacha oshib, sifati yaxshilanadi. 1 gektarga 30 g gibberillin sarflanadi.

O'g'itlash: N₁₂₀ P₆₀ K₃₀ kg/ga beriladi.

Tokni o'stirish sistemasi: Aymoqi, daraxtlar bilan birga o'tqazish, qoziqlarga osib o'stirish, yerda o'stirish, ishkonda o'stirish, so'rida (voishda) o'stirish, vertikal so'ri (simbag'azlar)da o'stirish.

Tokka shakl berish: Kallasimon, 1 va 2 tomonli, kosasimon, kordon va yelpig'ichsimon shakl beriladi

Tokni kesish: Asosiy agrotadbir, har yili o'tkaziladi.

Tokning yashil qismlarida olib boriladigan ishlar. Xomtok, qo'ltiq novdalarni olib tashlash, novdalarning uchini chilpish, qo'ltiq novdalarda hosil yetishtirish, novdalarning uchini kesish, barglarni, uzum boshlarni siyraklashtirish.

Qo'shimcha sun'iy changlatish. 10-15 % hosilni oshradi.

Sovuqdan asrash, xatosini to'ldirish, ko'mish kabilar.

Uzum hosilini chamalagandan so'ng uziladi. Chamalash uchun dalada har 5-qator, qatorda esa har 5-tup belgilanib, ulardagi uzum boshlari sanaladi. ular yig'indisi tuplar sonining o'rtacha bir tupdagi uzum boshlar soni aniqlanib, o'rtacha uzum boshlar soni aniqlanib, o'rtacha uzumi bosh vazniga ko'paytiriladi.

Hosildan foydalanishga qarab har bir navning hosilini yig'ish muddati to'g'ri belgilanishi lozim.

Yangilicha shu yerda iste'mol qilinsa, uzum to'la navga xos o'lchamga va rangga ega bo'lishi lozim.

Uzoqqa jo'natiladigan bo'lsa, to'la pishishgacha uzib olinishi va kamida 15 % shakarga ega bo'lishi kerak.

Chillakida 10-11 %, Husayni lundada – 12-13 %, Echkemarda – 11 % bo'lganda uziladi.

Vinochilik sanoati uchun uzum uzish muddati qanday vinolar tayyorlanishiga bog'liq. Spirtsiz vinolar uchun erta avgust-sentyabrda, yengil desert vinolar tayyorlash uchun – sentyabr o'rtasida, kuchli va og'ir likyor vinolar uchun sentyabr oxiri – oktyabrda uzib olinadi. Vino tayyorlash uchun O'zbekistonda uzum tarkibida shakar kondisiyasiga binoat 16-19 dan 22-26 % gacha belgilangan.

Mayiz va konsentratlar uchun uzum kech uziladi. Oq kishmishda shakar 22 % dan kam bo'lmasin.

Uzumni saqlashning bir qancha usullari mavjud:

1. Eng yaxshi harorat $0,5-1^0$ va havo namligi 85-90 % bo'dgan maxsus binolarda ochiq va yopiq yashiklarda saqlashdir.
2. Xo'jaliklarda quruq joyda uzum osib saqlanadi. Oltingugurt poroshogi doimo har 10 kunda dudlab turiladi.
3. Qumda ko'mib saqlash.
4. Novda barglari bilan saqlash (suvda turadi novda kesilgan joyi, vaqti-vaqti bilan kesib turiladi).
5. Uzum tupdan uzib olinmasdan ham saqlanadi (tupga yaqin joydan chukur kovlanib, uchtiga ishkomb qilinadi).

5. UZUMCHILIKDA HAYOT FAOLIYATI VA XAFVSIZLIGINI TA'MINLASH

Mehnat muhofazasining asosiy vazifalaridan biri ishlovchilarning mehnat xavfsizligini taminlashdir.

Zamonaviy agrosanoat ishlab chiqarishi muntazam yangi texnikalar, mikrobiologik va kimyoviy moddalar yetkazib berishni, chorva mollarini katta komplekslarga va mayda fermer xo'jaliklariga birlashtirishni, ish jarayonlarining yiriklashuvini, dexqonchilikdagi ishlarni bajarishni, ayrim mehnat turlarini hamda vostialarını o'zgartirib borishni o'z ichiga oladi.

Mehnat xavfsizligi - mehnat sharoitining shunday holatiki, unda ishlovchilarga xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining tasiri istisno qilingan. Ishlab chiqarish sharoitida insonga jarohat yetkazilishi bu fizikaviy va kimyoviy xavfli ishlab chiqarish omillari borligini bildiradi.

Barcha mashina va mexanizmlarga xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi bo'yimcha yagona talablar qo'yiladi.

Ana shu talablarga muvofiq mashina va mexanizmlarni boshqarishning asosiy richaglari o'ng qo'l ostiga joylashgan bo'lishi, har qaysi mashinada tovush signali, orqani ko'rish oynasi, burilish va to'xtash signallari bo'lishi kerak.

Ish jarayonida mashina va mexanizmlardagi maxkamlangan joylar bo'shashadi, zazor (tirqish) lar kattalashadi, moy, suv yoki yonilgi siga boshlaydi va xokazo. Shu boisdan pala-partish ko'rsatilgan texnik xizmat avariya va baxtsiz xodisalarga sabab bo'lishi mumkin.

Masalan, traktor yurish qismining maxkamlangan joylarini o'z vaqtida tekshirib va taranglab turilmasa, u ag'darilib ketishi mumkin. Agar mashina ishlayotgan vaqtda inson hayoti yoki salomatligiga xavf soladigan nuqson payqalsa, ishni darhol to'xtatish kerak.

Har bir traktorchi, kombaynchi, haydovchi mashinani ishlatishdan oldin uning texnik holatini tekshirib ko'rishi kerak.

Mashinadagi har bir harakatlanuvchi detal xavflidir.

Aylanayotgan val, yulduzcha, tishli g'ildirak ko'lni, turmaklanmagan sochni

yoki kiyimni ichkariga olib ketishi mumkin. Shu boisdan mashina va mexanizmlarning harakatlanuvchi qismlari qalpoq, g'ilof, to'siqlar bilan berkitiladi. Ammo harakatdagi barcha qismlarni ham himoya qurilmalari bilan berkitib bo'lmaydi. Shu sababdan xavfli zonada ham ishlashga to'g'ri keladi.

Xavfli doira hamma mashina va mexanizmlarda bor. Ular mashinalarning tashqi qismida (kombaynning parragi, qirquvchi apparati va x.q.) va ichki qismida (yanchish barabani, tozalash ventilyatori, konveyerlar) bo'lishi mumkin. Harakatga keltiruvchi dvigatelning aylanayotgan maxovigi atrofidagi doira xavfli hisoblanadi. Shu sababdan agar dvigatelni yurgizib yuborishning iloji bo'lsa, maxovikni qo'l bilan aylantirish man etiladi.

Yurib ketayotgan mashinaning o'zi ham xavfli doira hisoblanadi. Shuning uchun dvigatel ishlayotganida yoki mashina yurib ketayotganida uni moylash, rostlash va nuqsonlarini bartaraf qilish man etiladi. Mexanizasiyalashtirilgan agregatlarga xizmat ko'rsatayotganlar ish vaqtida xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishi: ishlab turgan mashina yaqinida yechinib-qiyinmasligi, o'ziga mos bo'lmagan jamoalarda ishlamasligi, qiyimining etaklari (barlari) shalvirab osilib turmasligi kerak.

Traktor, kombayn va avtomobilda haydovchi asboblarining to'la jamlanmasi, birinchi yordam ko'rsatish uchun aptechka, ichimlik suv solingan idish, zavod tomonidan beriladigan qo'llanma bo'lishi shart.

Zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikasida sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavfsizliklardan himoyalash uchun signalizasiyadan keng foydalaniladi.

Vazifasiga qarab signalizasiyalar ogohlantiruvchi (mehnat xavfsizligiga rioya qilish to'g'risida ogohlantiradi, transport vositalarining harakatini boshqarish), avariya xaqida (xavfli ish tartibi sodir bo'lganligi to'g'risida xabar) nazoratlovchi (ishlab chiqarish jarayonidagi harorat, bosim, suyuqlik miqdori va boshqalarni nozorat etish) va gaplashishga oid (bir mexanizm yoki agregatga xizmat ko'rsatuvchi, bir gurux odamlar bilan operativ, ovoqli va ko'rish signallarini shartli bog'lanishlaridir).

Xo'jalikda ishlovchilarning mehnat muhofazasi va hayot faoliyati xavfsizligini saqlash uchun ma'lum darajada fermer xo'jaliklari bilan kasaba uyushmasi o'rtasida har yili ishlovchilarni ish bilan ta'minlash ijtimoiy himoya qilish va mehnat muhofazasi bo'yicha shartnoma tuziladi.

Bu shartnomani bajarilishi fermer xo'jaliklari va kasaba uyushmasining kengaytirilgan yigilishida har yilning yakunida ko'rib chiqilib, navbatdagi yil uchun shartnoma tuziladi.

Xo'jalikda mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi ishlari bo'yimcha jumladan, texnika xavfsizligi bo'yicha alohida shtat ajratilgan bo'lib bu shtatdagi xodim xo'jalikka tegishli bo'lgan texnikalarni texnik jihatdan sozligi yoki nosozligi tegishli yoritish to'xtatish organlarining haydovchilarning o'tirish joylarini talabga javob berishligini nazorat qilib boradi.

Shu bilan birga, vaqti - vaqti bilan texnik haydovchilar, shafyorlar o'rtasida texnika xavfsizligi bo'yicha suhbatlar o'tkazib ular o'rtasida tushuntirish ishlarini olib boradi.

Xo'jalikda har doim ekin yigishtirib olish va boshqa mavsumiy ishlarning boshlanishi oldidan mehnat muhofazasi texnika xavfsizligi bo'yicha suhbatlar o'tkazilib turiladi.

Shuning natijasida keyingi yillarda salbiy holatlar yuz bergani yo'q.

Bu albatta ijobiy holat shuningdek xo'jalikda mehnatni muhofaza qilish uchun amalga oshirilayotgan ishlarni ko'rib chiqqanimizda 2011 yilda bu tadbirlarni amalga oshirish uchun 1040 ming so'm qishloq xo'jalik mahsulotlarini yig'im - terimga ishtirok etayotganlar uchun xasharchilar uchun turli tuman dori - darmonlar sotib olishga sarflangan.

Xo'jalik o'z mablag'i hisobidan xo'jalik ishchi xizmatchilarning dam olish uylarida yo'llanmalar sotib olingan.

Idorada ishlovchilarning ish sharoitini yaxshilashga ahamiyat berilgan bu sarflanayotgan mablag'lar xo'jalik tamonidan mehnat muhofazasi bo'yicha olib borilayotgan ishlarga ma'lum darajada e'tibor berilayotganini bildiradi.

Ishlar ma'lum darajada olib borilayotgan bo'lsada, remont ustaxonasi,

mashina traktor parki binosi va boshqa joylarda qishda isitish tarmog'ini yaxshi ishlamasligi yozda sovutkichlarning yo'qligi ishlovchilarning ishlashi uchun noqulaylik tug'diradi.

Xo'jalikda mehnatni muhofaza qilish burchagi, aptechkalar tashkil etilgan. Zararli ximikatlar bilan ishlovchilarga chang holatda ishlovchilarga maxsus kiyimlar to'liq bo'lmasada, beriladi.

Xo'jalikning har-bir bino va inshoatning yong'inga qarshi kurash vositalari bilan ta'minlanishi qoniqarli emas (to'liq taminlanmagan). Har bir obektning yong'inga qarshi kurash holati bilan javobgar shaxislarning ro'yxati bo'lsada, bu hol o'z holatiga tashlab qo'yilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amalga oishirilgan tahlillarimiz natijalari bo'yicha quyidagi xulosa va takliflar tayyorlashga muvofiq bo'ldik:

1. Uzum yetishtirish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning asosiy o'zagini tashkil etadi. Aholining uzum va mayiz mahsulotlariga bo'lgan talabini to'la qondirish uzum ishlab chiqarishni davlat tamonidan qo'llab-quvvatlashga va bu sohani birinchi darajali vazifaga aylanishiga sabab bo'ladi.

2. Mamlakatimizda uzum ekinlari yetishtirish bo'yicha 2013 yilda fermer xo'jaliklarining ulushi 82,4 foizni tashkil etgan.

3. Bizning tuman fermer xo'jaliklarimizda uzum ishlab chiqarish samaradorligining hozirgi holati tahlil qilinganda xo'jaliklarda retabellik ko'rsatkichi 1,9 punktga kamaygan, mahsulot tannarxiga nisbatan jami pul daromadi yuqori.

4. Uzumchilikda hosildorlikni oshirish. Tuman fermer xo'jaliklarida uzum hosildorligi 2013 yil 2011 yilga nisbatan 37,2 s/ga kamaygan. Buning uchun ma'lum bir davrda hosil berib, keyinchalik hosildorligi pasayib ketgan ko'chatlar o'rniga, yangi serhosil nizollarni o'tqazishdir.

5. Uzum hosilini oshirish ilg'or sug'orish usullaridan foydalanish bevosita bog'liq. Tuproqda nam to'plash maqsadida o'tkaziladigan sug'orishni amalga oshirish yuqori samara beradi.

Bunday dalalarda ekilgan ko'chatlar qisqa vaqtda bir tekis unib chiqadi navdalarning yer ustki qismi hamda ildiz qismi mustaxkam rivojlanadi va natijada hosildorlikning oshishiga olib keladi.

6. Hosildorlikni oshirish omillaridan yana biri uni qisqa muddatlarda yig'ib terib olishdir. Agar uning muddata kechiktirilsa, hosilning bir qismi nobud bo'ladi.

7. Yuqori hosil yaratish uchun barcha tezxnologik jarayonlar o'z vaqtida va sifatli o'tkazilishi zarur. Chunki, odatda samaradorlik hosilni yaratish, yig'ib olish bilan bevosita bog'liqdir.

8. Uzumchilik tannarxini pasaytirish. Uzumchilik va undan olinadigan mahsulotlarning iqtisodiy samaradorligi 1s. mahsulotning tannarxi va uni sotish

bahosi hamda rentabellik ko'rsatkichlari asosida baholanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 1 s. uzumning tannarxi tuman xo'jaliklarida oxirgi yillarda, ya'ni 2013 yil 2011 yilga nisbatan 51,1 ming so'mga oshib borgan. Bunday holat uzumchilikda ishlatiladigan asosiy va aylanma vositalarning bahosining oshishidadir deb hisoblaymiz. Mehnat haqqi fondi undan hisoblanadigan ajratmalar, soliqlar va to'lovlar hajmining ko'payish hisobiga sodir bo'lmoqda.

Shuning uchun, mavjud real imkoniyatlardan oqilona foydalanishni tezlashtirish maqsadida bozor iqtisodiyoti sharoitidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish dolzarb vazifadir.

9. Dastavval, tovar mahsulotlarning 1s.ning sotish bahosini bozordagi talab va takliflardan kelib chiqib oshirish va tannarxini begilangan "Xarajatlar tarkibi to'g'risida Nizom"ga asosan me'yorlash, yani mahsulot tannarxini imkon qadar arzonlashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ushbu takliflarimizni tuman fermer xo'jaliklarida joriy qilinishi uzumchilik ishlab chiqarish rentabelligining oshishiga yordam beradi, deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Kanstitusiyasi. - T.: O'zbekiston, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Buxgalteriya hisobi to'g'risida. 30.08.1996.
3. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Fermer xo'jaligi to'g'risida (yangi taxrirda). 26.08.2004.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. G'alla tolasini sotishning ichki va amaldagi narxlari o'rtasidagi ijobiy tafovutdan tushadigan mablag'larning bir qismini jamlash va ulardan fermer xo'jaliklarining foydalanishi tartibi to'g'risida. 04.02.2011. - № 30
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Xo'jalik yurutuvchi subyektlarning xarajatlarini hisobga olish va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibini takomillashtirish to'g'risida. 15.10.2003.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Mahsulot (ishlar xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom. 05.02.1999. - №54.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida. 20.01.2009. PQ-1041-son.
8. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muxofaza qilish Vazirligining buyrug'i. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va yig'ishtirib olish uchun talim muassasalari o'quvchilari va talabalaridan foydalanishda mehnatni muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash xaqida. 08.02.2011. №7-B.
9. Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan tizimini tashkil etish to'g'risida Nizom. 21.01.2008.
10. B.X.M.A №21 - Xo'jalik yurutuvchi subyektlar moliyaviy xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma. 20.03.2003.
11. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. -T.: O'zbekiston, 2010.- 376 b.

12. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish - ustuvor maqsadimizdir. - Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi maruzasi. // Xalq so'zi. 20.01.2010.

13. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston, 2009. -54 b.

14. Karimov I.A. Eng asosiy mezon - hayot haqiqatini aks ettirish. -T.: O'zbekiston. 2009. 270 b

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi maruzasi. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. //Xalq so'zi. 13.11.2010. - №220 (5135).

16. Karimov I.A. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezident Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishiga bag'ishlangan Mahkamasining majlisidagi maruzasi.// Zarafshon. 18.01.2014.

17. Абдуллаев.Р. Бухгалтерский учет и аудит. Тошкент. Иқтисод молия, 2010. – 86. б.

18. Aliqulov A., Eshmuradov U. Qishloq xo'jalik korxonalarida sotish jarayonlari hisobini takomillashtirish. //Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va aholini ish bilan taminlash masalari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani to'plami. 26.12.2009. 298-300.b.

19. Aliqulov A., Eshmuradov U. Fermer xo'jaliklarida g'alla sotish operasialari hisobini takomillashtirish. //Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida sohalarni rivojlantirishning nazariy va metodologik muammolari: ilmiy-amaliy anjuman to'plami. Samarqand Oliy Harbiy Avtomobil Qo'mondonlik-muxandislik bilim yurti. 24.04. 79-81 b.

20. Aralov X. Dexqon xo'jaliklarining mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2010. -№2. 27-28 b.
21. Do'smurotov R.D., Mamadiyarov D.U. Boshqaruv hisobi. - T., 2008.-212 b.
22. Doliyev T. Sarhisob pallasi. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2008. -№ 10. -1-6.
23. Doliyev T. Modernizatsiya qishloq xo'jaligi taraqqiyotida muhim omildir. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi.-Toshkent, 2011. - № 4. -1b.
24. Eshmuradov U. Mamlakatni modernizatsiyalashda fermer xo'jaliklarida sotish jarayonlari hisobini takomillashtirish. //Qishloq xo'jaligini rivojlantirishdagi ustuvor yo'nalishlar va ularning yechimlari. Professor-o'qituvchilarning 2011-yil «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili»ga bag'ishlangan ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami. 26-27. 04. 2011. 52-54 b.
25. Ismailov A.Q., Murtazayev O. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. -T.: Moliya, 2005. – 428 b.
26. Ибрагимова Д. Реализация продукции дехканских и фермерских хозяйств. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2011. -№ 4. 34. b
27. Jo'rayev Sh. Kazaxboyev Sh. Davlatov F. Daromad va xarajatlar tahlili. //O'zbekiston qishloq ho'jaligi, 2008. -№12. 26- b.
28. Pardayev A.Q., Pardayev B.X. Boshqaruv hisobi. - T.: 2008. - 205 b.
29. Olimjonov O. Oziq- ovqat xavfsizligini ta'manlash. //O'zbekiston qishloq ho'jaligi, 2009. -№2. 14 – 15-b.
30. Qudratov T.Q. Qishloq xo'jalik korxonalarini xo'jalik faoliyatining tahlili. Maruza matnlari, -Samarqand: SamQXI, 2002.
31. Qudratov T. va boshqalar. Qishloq xo'jalik korxonalarini faoliyatining tahlili. - Samarqand: SamQXI, 2008. -270 b.
32. Raxmonov H., Otajonov Sh. Kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni rivojlantirish. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 2008. -№ 2. 27 – 28 b.
33. Siddiqov R., Maxmudov H. Kelgusi hosilga tayyorgarlik. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2008. -№8. 3-4 b.

34. Sultanov B., Saydullayev U. Yerlardan samarali foydalanish. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2010 - №8. -25 b.

35. Tursunov U., Imodinov X. Fermer xo'jaliklarida xarajatlar xisobi va mahsulot tannarxini aniqlash. //Agroilm – O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 2008 . - № 4. 73-74- b.

36. Toshpo'latov A. Mahsulot tannarxi va hisoblashni takomillashtirish. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2010. -№8. 20-21b.

37. Umirzoqov O'. P., Toshboyev A. J., Toshboyev A.A. Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-moliya, 2007. - 237 b.

38. Xolmirzayev I. Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2010.- №2. -26 b.

39. Samarqand viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlari. 2011-2012-2013 yillar.

40. Samarqand viloyat Qo'shrobd tumani qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlari. 2011-2012-2013 yillar.

41. Samarqand viloyat Qo'shrobot tumani fermerlar xo'jaliklar kengashi ma'lumotlari. 2011-2012-2013 yillar.

42. Internet saytlari.

42.1. www.soliq.uz - Soliq tizimi sayti.

42.2. www.ziyonet.uz, - Ziyonet ta'lim partali.

42.3. www.samqxi.uz - Samarqand Qishloq xo'jalik instituti sayti.

42.4. www.statistika.uz - Statistik hisob-kitoblar sayti.

42.5. www.agro.uz – Qishloq va suv xo'jaligi sayti.

42.6. www.uz.uz – O'zbekiston axborot agentligi sayti.

42.7. www.edi.uz – Oliy ta'lim sayti.